ANALYZING CHARACTERISTICS OF DRYING AIR AND THE INITIAL VOLUME OF THE SPICE PLANTS

Djurayev Kh.F. Doctor of Technical Sciences, professor¹, djuraev_xf@mail.ru

Mizomov M.S., Postgraduate student², muhammadmizomov@gmail.com

^{1,2}Bukhara engineering-technological institute, Uzbekistan, Bukhara city, K. Murtazaev str.15

Abstract. Nowadays, one of the most important tasks in the world is the production of quality dried finished products that are safe through the processing of fruits and vegetables, spices. In particular, in developed countries such as Germany, Ukraine, Turkey, the Russian Federation, special attention is paid to the improvement of spice drying devices, which serve to increase the nutritional value (biological, energy, and digestibility) of food consumed.

Keywords: Product quality, process quality, nutritional value, amount of essential oils/aroma, constant drying rate, moisture content.

It is important to process spices, expand the field of application of developed products, create environmentally friendly, energy-efficient drying technologies. The cultivation of herbs in Poland is one of the newest sectors of plant production despite the centuries-old tradition of using herbs across the world. In addition the paper presents examples of the development of solutions using low-temperature herb dryers appropriate to small and medium-sized farms. This module should give the user a deeper understanding of the drying process of herbs and highlights the influencing factors on high product quality and efficient processing. The processing of herbal plants involves drying, which is one of the most important stages of herb preservation and the most energy-consuming process occurring in agricultural production. Dehydration is the most common method used to lower moisture content and hence the water activity to a safe limit which prolongs shelf life. During the drying process, the weight of samples was measured using an electronic balance with a sensitivity of 0.01 g. The samples were weighed every 15 min for the first 1 h, then every 30 min for 2 h, after 2 h of drying, the weighing was performed at 60 min intervals [2]. The sample moisture content at time t (M_t) during drying process was calculated according to the initial moisture content and initial weight, as well as the sample weight at time t . The moisture ratio (MR) of samples was calculated using:

$$MR = \frac{M_t}{M_0}$$

Where, M_0 represents the primary moisture content of the raw material such fruit samples, g/g; M_t is the sample moisture content at time t , g/g.

The dehydration rate of material between time t_1 and t_2 of samples for different dehydration techniques:

$$DR = \frac{M_{t1} - M_{t2}}{t_2 - t_1}$$

where; M_{t1} and M_{t2} are the moisture contents of fruits at the drying times t_1 and t_2 , respectively, g/g.

However, consumers demand on processed products with most of the original characteristics of the fresh plants has increased [3]. Consequently, drying must be executed carefully in the interest of retaining the taste, aroma, color, appearance, as well as nutritional value of the plants to maximum possible extent. In addition to quality considerations, drying efficiency is another key aspect for evaluating drying performance.

References

1. <http://technologia.chem.elte.hu/hu/muvelettan/Vegyipari> Muvelettan_teljes.pdf (Chemical Operations, 2016.11.12.)
2. Chua, K. J.; Chou S. K.; Ho, J. C.; Mujumdar, A. S. & Hawlad, M. N., 2000. Cyclic Air Temperature during drying of guave pieces: Effects on moisture and ascorbic acid contents. Food and Bioproducts Processing 78 (2): 28-72.
3. Cuervo-Andrade, S.P., 2011, Quality oriented drying of lemon balm (*Melissa officinalis* L.). Doctoral Dissertation, University of Kassel, Germany.

II – SHO‘BA

**Neft-kimyoy sanoatida zamonaviy energiya
va resurslarni tejaydigan texnika va
texnologiyalarning ahamiyati**

GAZNI REGENARIYATSIYALASH JARAYONI TAHLILI

Usmonov A.U., t.f.n., dotsent, Bozorova M.Q., M59-23 TJBAKT magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada gazni qayta ishlash usullari va tabiiy gaz-ko'pchilik davlatlarning yoqilg'i energetika balanslarida asosiy o'rinni egallaydigan eng muhim qazilma yoqilg'ilardan biri kimyo sanoati uchun muhim xomashyolardan biri ekanligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: regenatsiya blogi, qizdirsh pechi, harorat, bosim, konsentratsiya.

O'zbekiston neft va gaz sanoati ayni kunda mamlakat iqtisodiyotining eng yirik tarmog'i hisoblanadi va energetikaning muhim asosini tashkil etadi. Neft gaz kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Ayniqsa, tabiiy gazlarni zaharli nordon gazlardan tozalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tabiiy gaz – ko'pchilik davlatlarning yoqilg'i energetika balanslarida asosiy o'rinni egallaydigan eng muhim qazilma yoqilg'ilardan biri kimyo sanoati uchun muhim xomashyo. Uning deyarli 90% uglevodorodlardan, asosan metan CH_4 dan tashkil topgan. Tarkibi ancha og'ir uglevodorodlar –etan, propan, butan shuningdek merkaptanlar hamda vodorod sulfid H_2S (bular zaharli aralashmalar), azot va karbonat angidrid (ular umuman foydasiz, lekin zarari ham yo'q), suv bug'lari, geliy va boshqa inert gazlarning foydali qo'shimchalari bo'ladi. Neft va gaz kondensatini qayta ishlash ikki xil yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchisi yoqilg'i yoqilg'i yo'nalishi. Bunda neft va gaz kondensatini atmosfera bosimining $360^{\circ}C$ gacha qizdirib, ulardan benzin, kerosin va dizel yoqilg'isi fraksiyalarni ajratib olinadi. Qolgan og'ir qismi-mazutni katalitik kreking, termik kreking yoki gidrokreking qurilmalariga berilib, qo'shimcha ravishda benzin, kerosin va dizel yoqilg'isi olinadi.

Ikkinchi yo'nalish yoqilg'i-moylar olish yo'nalishidir. Bu yo'nalishda neft va gaz kondensatidan yengil fraksiyalar olingandan so'ng, qoldiq qismi mazutni vakum ostida ishlovchi qurilmalarda turli fraksiyalarga ajratilib ulardan har xil neft moylari olinadi. Yuqoridagi eslatib o'tganimizdek Respublikamizda ikkita yirik tabiiy gazni qayta ishlash zavodlari va gazni kimyoviy qayta ishlash kompleksi mavjud. Muborak gazni qayta ishlash zavodda tabiiy gazlarni oltingugurt birikmalaridan (asosan H_2S dan) tozalovchi, gazlarni quyi temperaturada sovutib suv va gaz kondensati tomchilaridan tozalovchi, nordon gazlarda oltingugurt ishlab chiqaruvchi, gaz kondensatini tindiruvchi texnologik qurilmalar ishlab turibdi. Gazlar qazib olinishiga va fizik - kimyoviy xossalari qarang ikkiga turda bo'ladi. 1. Tabiiy gazlar. 2. Sun'iy gazlar. Gazlar hozirgi zamonda shahar va qishloqlarning asosiy yoqilg'i hom ashyosi hisoblanib, u 3 guruhdagi tabiiy gazlarga bo'linadi:

1. Gaz konlaridan olingan gazlar (quruq gazlar) - tarkibi 98 % gacha metan (CH_4) dan iborat;
2. Gazokondensat konlaridan olingan gazlar - tarkibi quruq gaz va kondensat aralashma (benzin, ligroin, kerosin) dan iborat;
3. Neft konlaridan neft bilan birga olinadigan yo'ldosh gazlar - tarkibida benzin bo'lgan gazli aralashma va propan - butanli fraksiyalardan iborat.

Ko'p hollarda tabiiy gazlar tarkibida, ularning sifatini buzuvchi aralashmalar bo'ladi, bular: uglekislota, oltingugurt vodorodi, azot va suv bug'i.

Sun'iy gazlar suyuq va qattiq turdagi yoqilg'ilarga termik ishlov berish yo'li bilan hamda ko'mirni yer ostida gazlantirish yo'li bilan hosil qilinadi. Bunday gazlarning tarkibi asosan - uglevodorod oksidi, vodorod va azotdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

3. Murodov O.E., Yuldashev T.R., Eshkabilov X.K. Neft va gaz ishi asoslari. O'quv qo'llanma. -Qarshi, Nasaf, 2011.
4. Yuldashev T.R., Eshkabilov X.Q. Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari. Qarshi, Qashqadaryo ko'zguasi OAV, 2015. -328 b.

ЮВУВЧИ-ДИСПЕРГИРЛОВЧИ ПРИСАДКАЛАРНИ ОЛИШ УСУЛЛАРИ ВА УЛАРНИ ДИЗЕЛ ЁҚИЛҒИСИ ХОССАЛАРИ ЯХШИЛАШДА ҚЎЛЛАШ

Каримова Садоқат Амрилоевна – докторант
Фозилов Садриддин Файзуллаевич – илмий раҳбар, проф. т.ф.д.

Присадкаларни ишлаб чиқишда, махсус усулларда олинган экспериментал маълумотлар катта аҳамиятга эга. Ушбу усуллар бўйича тўлиқ тавсифини дизел ёқилғиларни баҳолаш бўйича малакали усуллар мажмуаси усулида тадқиқ қилиш мумкин. Мавжуд бўлган ювувчи диспергирловчи присадкаларнинг фаоллигини баҳолаш усулларини икки гуруҳга бўлиш мумкин:

1. Присадкаларнинг диспергирловчи ва барқарорлаштирувчи хоссаларини, уларнинг модель ёқилғи (индивидуал углеводородлар, углеводородларнинг бинар аралашмаси) ёки маълум таркибли реал ёқилғида сунъий тайёрланган суспензиялари (курум, реал ёқилғилардаги кўйқалар) қарши мустаҳкамлигига бўлган таъсирини ўрганиш усули.

Присадкаларнинг диспергирловчи хоссалари, присадка мавжудлигида курумларнинг дисперслиги ўзгариши оптик ёки седиментацион усулида баҳоланади, барқарорлаштирувчи хоссалари эса вақт давомида олинган дисперсиянинг барқарорлиги ўзгариши билан аниқланади. Присадкаларнинг солюбириланадиган хоссалари, улар модел ёқилғидаги кўшимчаларни коллоид эритмага ўткази олиш имконияти билан баҳоланади.

2. Реал ёқилғиларнинг 220-225°C ҳароратгача иситишда присадкаларнинг чўкма ҳосил қилишга таъсир этишни баҳолаш усули.

Динамик усулларига дизел форсункалари пуркаловчиларнинг қатронланиш жараёнининг бошланғич ҳароратига асосланган усулни киритиш мумкин, бунда форсункалар орасидан 5 соат давомида 120-220 °C ҳароратда электр токи орқали иситиладиган присадкали ва присадкасиз реал ёқилғи ўтади.

Қуйидаги синтезлар амалга оширилди, карбон кислотаси сифатида каприл, лаурин, миристин, пальметин ва стеарин кислоталари, шунингдек бензой ва п-толуил кислотаси олинди. Дастлабки карбон кислоталарнинг физик тавсифлари 1-жадвалда келтирилди.

1-жадвал

Юқори карбон кислоталарнинг физик хусусиятлари

Карбон кислота номи ва формуласи	Кайнаш ҳарорати, °C	Суюқланиш ҳарорати, °C	Зичлиги, d_4^{20} г/см ³	
Каприл кислота	C ₉ H ₁₉ COOH	237,0	16,7	0,9088
Лаурин кислота	C ₁₁ H ₂₃ COOH	298,9	44,5	0,8690
Миристин кислота	C ₁₃ H ₂₇ COOH	198,0/50 °C	54,4	0,8589
Пальметин кислота	C ₁₅ H ₃₁ COOH	380,0	64,0	0,8414
Стеарин кислота	C ₁₇ H ₃₅ COOH	383,0	69,0	0,8390

Динамик усулларига дизел форсункалари пуркаловчиларнинг қатронланиш жараёнининг бошланғич ҳароратига асосланган усулни киритиш мумкин, бунда форсункалар орасидан 5 соат давомида 120-220 °C ҳароратда электр токи орқали иситиладиган присадкали ва присадкасиз реал ёқилғи ўтади. Ювувчи диспергирловчи присадкаларнинг таъсир қилиш механизмининг турли томондан ўрганиб чиқиш мақсадида, юқори натижаларни кўрсатган, СФМ тадқиқ қилиш усулларини ҳам ишлатиш мумкин - солюбилизация хоссалари, сув - толуол фазалари чегарасида сирт фаоллик, ёқилғиларнинг қаттиқ моддаларда адсорбцияси, диспергирловчи хоссаларини (курум заррачаларига нисбатан) тадқиқ қилиш усуллари билан бириктирилади. Органик кислоталар тузлари ва аминлар асосида ювувчи диспергирловчи присадка синтез қилинди. Ишлаб чиқишда дизел ёқилғиларда истиқболли бўлган модел бирикмаларнинг синтези методикаси қўлланилди.


ХИНАЗОЛИНДИОН-2,4 АСОСИДА ДИЗЕЛ ЁҚИЛҒИЛАРИ УЧУН ЮВУВЧИ-ДИСПЕРГИРЛОВЧИ ПРИСАДКАЛАРНИ СИНТЕЗ ҚИЛИШ

Каримова С.А., Фозилов С.Ф.


Ҳозирги кунда дунёда табиий газ ва нефт асосий стратегик аҳамиятга эга энергетик манбаа ҳисобланади. Уларни қайта ишлаш асосида олинган маҳсулотлар барча саноат тармоқлари, транспорт, энергетика, қишлоқ хўжалиги ва кундалиқ турмушда кенг қўлланилмоқда. Шу сабабдан, углеводород хомашёларига дастлабки ишлов беришда энергия тежамкор технологиялардан фойдаланиш долзарб муаммо ҳисобланади.

Республикамизда нефтни қайта ишлаш тармоғида ишлаб чиқаришни сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш, модернизациялаш ва диверсификация қилиш, инновацион технологияларни жорий этиш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ҳажми ва сифатини ошириш ҳамда турларини кенгайтиришга йўналтирилган илмий тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда. Хиназолиндион- 2,4 ва акриламид асосида ювувчи-диспергирловчи присадкаларни олиш усуллари ва уларни дизел ёқилғиси хоссаларини яхшилашда қўлланилади.

Уч бўғизли колбага совутғич бир томонига династарка ва иккинчи томонига термометр уланди. Унга 4,75 г (0,03моль) хиназолиндион-2,4 ва 200 мл бензол солиб яхшилаб аралаштирилди, сўнгра унинг устига 2,3 г (0,03моль) акриламиддан солинди. Аралашмани 2-3 соат давомида 100-120⁰С ҳароратда қиздирилди. Колбадаги династаркада тегишли миқдорда сув ажралганини кузатилди, ҳосил бўлган моддани вакуумли насосда филтрланди ва қуритилгандан сўнг 5,80 г амид ҳосил бўлди, реакция унум 81,0 % тенг.



Органик кислоталар ва аминлар асосида ювувчи диспергирловчи присадка синтез қилинди.



Расм 1. Хиназалондион-2,4 ва акриламид асосида олинган амиднинг ИҚ-спектри

Хиназалондион-2,4 ва акриламид асосида олинган амиднинг ИҚ-спектри 1-расмда келтирилган. ИҚ-спектрадаги 752,24 см⁻¹ ютилиш соҳаси N-H гуруҳи деформацион ясси тебранишларига, 1037,10 см⁻¹, 1138,00 см⁻¹ ютилиш соҳалари алкиламин гуруҳи валент тебранишларига, 1238,30 см⁻¹ ва 1404 см⁻¹ ютилиш чўққилари N-H амид гуруҳи ўртача интенсивликдаги валент тебранишларига, 1614,42 см⁻¹, 1660,71 см⁻¹ ютилиш соҳаси ўртача интенсивликдаги N-H гуруҳи деформацион тебранишларига, 1693,50 см⁻¹ C=O карбонил гуруҳи симметрик валент тебранишларига, 3250,05 см⁻¹ ютилиш чўққиси иккиламчи амид N-H валент тебранишларига хосдир.

SURKOV MATERIALLAR BOZORINING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Magistr: Jumaboyeva E. Rahbar: Xo'jaqulov K.R.

Surkov materiallarining asosiy vazifasi bu ularning ishqalanish va yemrilishni kamaytirishdir, ba'zi holatlarda ikkita yuk ta'siridagi yuza sirtning nisbiy harakatini faqat surkov materiallari ishtirokida amalga oshirish mumkin. Bugungi kunda energiya, resurslar va chiqindilarni kamaytirish ekologik muammo sifatida asosiy o'rinni egallaganligi sababli, surkov materiallari mohiyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, G'arbning sanoati rivojlangan mamlakatlarida tribologiya sohasidagi dolzarb ilmiy ishlarni qo'llash orqali ishqalanish, yemirilish va moylash, harakatlanuvchi elementlarni moylash bilan energiya xarajatlari ushbu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotlarining 0,4% ga teng miqdorda kamayishi mumkinligini ko'rsatadi.

Surkov materiallari haqida gap ketganda, odatda minerallarga asoslangan moylarni tushunish mumkin. Mineral komponentlar surkov materiallarining miqdoriy jihatdan eng muhim asosi bo'lib hisoblanadi. Neft-kimyoy komponentlari va yuqori darajada ortib borayotgan neft sanoatining qayta ishlash mahsulotlarining hosilalari ekologik jihatdan muvofiqdigi va ba'zi texnik afzalliklari tufayli tobora ko'proq foydalanib kelinmoqda.

Surkov materiallari umumiy miqdorining 90% dan ortig'ini tashkil etadigan surkov moylari o'rtacha 93% asos moylari va 7% kimyoviy qo'shimchalar va boshqa komponentlardan iborat (ularning ulushi 0,5 dan 40% gacha bo'lishi mumkin). Surkov materiallari ishlab chiqarish ularni ma'lum sohalarda qo'llash usullari bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi vaqtda surkov materiallari asosan ikkita katta guruhga bo'lingan: avtomobil va sanoat. Sanoat surkov materiallarini moylar va maxsus mahsulotlarga ajratish mumkin. Ikkinchisiga asosan plastik surkamalar, kesuvchi suyuqliklar (sovutgichlar) va qattiq plyonkali moylovchi qoplamalar kiradi.

Texnologik moylar ko'pincha surkov materiallari guruhiga kiritiladi, bu esa surlov materiallarini iste'mol qilish statistikasida chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bularga sintetik kauchuk ishlab chiqarishda plastifikator vazifasini bajaradigan moylar, shuningdek, turli xil jarayonlar uchun xom ashyolar kiradi. Texnologik moylarni surkov materiallari bilan bog'laydigan yagona narsa shundan iboratki, ular asosiy moylarni qayta ishlash natijasida ham olinadi. Bu turdagi moylar ushbu maqolada ko'rib chiqilmaydi, ammo taqqoslash maqsadida statistik ma'lumotlarga kiritilgan.

Avtomobillar surkov materiallari bozorining hajmi 2020 yilda taxminan 20 million m³ ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2021-2026 yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,5% dan oshishi kutilmoqda.

Bugungi kunda surkov materiallarga bo'lgan ehtiyojni qondirish va yuqori sifatli mahsulotlar olish uchun quyidagi aniq vazifani aytib o'tish mumkin.

Qisqa muddat ichida yuqori samarali surkov materiallari bozorini kengaytirish va bozorning o'sishiga yordam beruvchi omillarni aniqlash.

Plunjerlar uchun surkov materiallari bozori, ayniqsa, avtomobil sanoatida yuqori bosim ostida quyish usuli bilan olinadigan detallar olish uchun talabning o'sishi bilan bog'liq bo'lgan eng tez rivojlanayotgan inyeksion moylovchi materiallari bozori bo'lishi kutilmoqda.

Bosim ostida quyish uchun moylovchi materiallar bozori quyish jarayonida ishlatiladigan metallga qarab alyuminiy va magniy, qalay, qo'rg'oshin va rux, mis va latunga bo'lingan.

Alyuminiy va magniyli materiallarini bosim ostida quyish uchun surkov materiallar bozorning 65% dan ortig'ini egallaydi.

СТИРОЛ БИЛАН ФТАЛИМИДИЛМЕТАКРИЛАТНИ ЭМУЛЬСИОН СОПОЛИМЕРЛАНИШ ЖАРАЁНИНИ ТЕХНОЛОГИЯСИ


Мавлонов Бехруз – магистр, Мавланов Бобохон Арашович – илмий раҳбар

Стирол ва фталимидилметакрилатни эмульсион сополимерланиш жараёни куйидаги босқичлардан иборат: -хом ашёни тайёрлаш (мономерларни тозалаш, инициатор, эмульгаторни эритиш ва сополимер коагуляцияси учун электролитни тайёрлаш); -стирол ва фталимидилметакрилат сополимерланиши; -сополимерни коагуляциялаш (чўктириш); -сополимерни ювиш ва центрифугациялаш;-сополимерни қуритиш; -сополимерни грануляциялаш (донадорлатириш);- маҳсулотни қадоқлаш.

Эмульсион сополимер олишда реагентлар миқдори (масс.қисм):

Стирол- 50, фталимидилметакрилат – 50, сув – 200-300, эмульгатор (натрий олеинат) – 1,0-3,0, инициатор 0,25-0,5 олинди.

Стирол ва фталимидометакрилат эмульсион сополимерини даврий усулда олишни технологик схемаси 1 – расмда келтирилди.



1-расм. Стирол ва фталимидилметакрилат даврий усулда эмульсион сополимерланиш жараёнини технологик схемаси: 1-стирол сиғими; 2- ўлчагич; 3- сополимерлаш реактори; 4-трубали совутгич; 5-оралиқ сиғим; 6- чўктиргич идиш; 7-сополимерни ювиш асбоби; 8-ушлагич; 9-центрафуга; 10- қайнар қаватда қуритиш; 11-тебранувчи элак; 12-фталимидилметакрилат сиғими.

Тескари совутгич, аралаштиргич ва қобуқли реактор полимеризатор 5 га тозаланган 0,5 мол стирол ва 0,5 мол фталимидилметакрилат солинади. Олдиндан полимеризаторга 50 °С гача қиздирилган минералсизлантилган сув, сўнгра аралаштириб турган ҳолда эмульгатор натрий олеинат ва ўювчи натрий эритмаси солинади. Кейин полимеризатордаги реакция аралашмани аралаштириб инициаторнинг сувли эритмасидан 0,5 масс.% қуйилади. Аралашма 65-70 °С гача қиздирилади. Экзотермик реакцияда ажралиб чиққан энергия ҳисобига ҳарорат 85-95 °С гача кўтарилади. Жараёни олиб боришнинг умумий вақти 5,0-6,0 соат, қолдиқ мономерларнинг миқдори 0,5% дан ошмайди. Ҳосил бўлган маҳсулот майин дисперс барқарор суспензия ҳолида бўлади. Сополимерни ажратиш учун суспензия эритмаси коагуляциялаш учун муҳит рН 5,5-6,0 бўлгунча алюминий калийли квасц эритмасидан қўшилади. Реакцион аралашмадан чўктиргич 6 га секин аста сополимер чўкмага тушади. Аралашмага кучли буғ юборилади, 75-85 °С гача қиздирилади, аммиакли сув қўшиб 1,5-2,0 соат давомида аралаштирилади, кўр (суспензия) эритмадан ажратилади ва сополимер иссиқ сув билан ювилади. Эримадан сополимер чўктирилгандан сўнг тизимга сув оқими юборилади., 7 қурилмада ювилади ва 9 центрифугада суви ажратилиб 10 қуритгичга юборилади. Қуритиш қайнар қаватли қуритгичда ҳамда пневматик қуритгичда амалга оширилади. Қолдиқ намлик 0,5% дан ортмаслиги лозим. Қуритилган сополимер тебранма элак 11 данг ўтказилиб қадоқлашга юборилади.

СТИРОЛ АСОСИДА ЭМУЛЬСИОН (СО)ПОЛИМЕРЛАРНИ ОЛИШ ВА УЛАРНИНГ ХОССАЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Мавлонов Бехруз – магистр, Мавланов Бобохон Арашович – илмий раҳбар

Стиролнинг эмульсион сополимерланишида кўпчилик мономерларнинг полимерланиши каби сув ишлатилади. Эмульгаторлар сифатида эса совунлар (юқори ёғ кислоталари тузлари), парафинлар ва ароматик углеводородлари қатори сульфокислота тузлари (масалан, некаль) ишлатилади. Эмульсион сополимерланиш инициаторлари сифатида сувда эрувчан пероксидлар: водород пероксида, аммоний ва калий персульфат. Инициатор концентрацияси реакция аралашмадаги мономерлар массасига нисбатан 0,25-0,5% олинади. Оксидланиш – қайтарилиш инициация тизими қўлланилганда сополимерланиш тезлиги ортади ва жараён ҳарорати камаяди. Ҳосил бўлган латексни коагуляциялаш одатда электродлитлар – кислоталар ёки тузлар (альюминий сульфат, алюмокалийли квасцлар) ёрдамида амалга оширилади.

Стиролни эмульсион сополимерланиши радикал механизмда боради. Полимернинг молекуляр массасини занжирни узатиш агентлари (полисульфидлар, меркаптанлар, ксантогенатлар ва бошқалар) ёрдамида тартибга солиб бошқариш мумкин. Фазалар чегарасидаги тегишли сирт тарнглигини сақлаш учун регуляторлар қўшилади, регуляторлар сифатида алифатик спиртлар ишлатилади, уларни сополимерланаётган тизимга мономерлар массасига нисбатан 0,5% миқдорда қўшилади.

Эмульсион сополимерланиш тезлиги муҳитни рН га боғлиқ, шунинг учун рН ни аниқ қийматда сақлаш учун реакцияга буфер аралашмалар (ацетатлар, фосфатлар ва бошқалар) киритилади. Бошқа усулларга нисбатан эмульсион полимерлашда нисбатан полимернинг молекуляр массаси юқори бўлади. Эмульсион полистирол ва унинг сополимерлари зичлиги 100 кг/м³ дан кам ғовак полимерлар олишда қўлланилади. Эмульсион полимерланиш стиролни бошқа винил мономерлари билан сополимерларни олишда ҳам қўлланилади.

Эмульсион полистирол фақат юқори молекуляр массали полимер талаб қилинадиган ғовакпласт конструкцияли буюмлар ишлаб чиқариш учун ишлатилади. Эмульсион полистирол саноатида майин дисперс полимерни қуритиш босқичи кўп меҳнатни талаб қилади, заҳарли стирол ва бошқа моддалар билан ифлосланган катта миқдордаги оқава сувларни тозалаш қийин. Майин дисперс эмульсион полистиролни олдиндан донадорлаштириш зарурияти уни қайта ишлашда технологик қийинчилик туғдиради. Олинган эмульсион полистирол блок ва суспензия усулида синтез қилинган полистиролга нисбатан диэлектрик хоссаси ёмон.

Полистирол хоссаси. Полистирол зичлиги 1050-1080 кг/м³ бўлган қаттиқ аморф маҳсулот. Молекуляр массаси полистирол саноат маркаси олиниш усулларга боғлиқ бўлиб 50 000 дан 300 000 гача оралиқда ўзгаради. Эмульсион полистирол бундан мустасно бўлиб, унинг молекуляр массаси сезиларли даражада юқори бўлади.

Полистиролнинг қўлланилиш соҳалари ниҳоятда кенгдир. Полистирол юқори частотали техника учун электроизоляция материал сифатида кенг ишлатилади. Диэлектрик сифатида полистиролни асосий истемолчилари асбобсозлик саноати (электр- ва радиоэлектрон асбоблар деталлари, конденсаторлар тайёрлаш учун плёнкалар) ва кабел саноати (стирофлексдан ва иплардан кабеллар изоляцияси) ҳисобланади.

Полистирол қурилиш материаллари саноатида конструкция материал сифатида юқори механик кучланиш остида ишлайдиган деталлар тайёрлаш учун (панеллар, ялтирок плиткалар, эшик қўлтутқичлари ва бошқалар) қўлланилади.

Блок полистиролни юқори сингдириш кўрсаткичга эгаллиги сабабли ундан оптик шишалар тайёрланади. Полистирол майиш хизмат саноати учун идишлар, галентерия буюмлари, ўйинчоқлар, яшиқлар ва шунга ўхшаш маҳсулотлар тайёрлашда кенг қўлланилади.

QOPLAMALAR HAQIDA MA'LUMOT

Magistrlar: Xusenov A., Xamroev R. Raxbar: Xaydarov A.A.

O'zbekistonda lok bo'yoq ishlab chiqarish korxonalarini soni va ularda ishlab chiqariladigan lok bo'yoq mahsulotlar miqdori kun sayin o'sib bormoqda. Lok bo'yoq materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar jumlasiga: Toshkent lok-bo'yoq zavodi, O'zbekiston-Birlashgan Arab Amirligi qo'shma korxonasi, Lok va bo'yoqlar ishlab chiqarish Mexrjon, Lok kolor sintez uzbeksko, Rezalit kolor lok bo'yoq zavodi, Link paints trading uzbeksko emallar ishlab chiqarish, Oxide ltd Lyudmila Servis lok bo'yoq korxonasi, RbM ipak va jun uchun bo'yoqlar ishlab chiqarish Lok bo'yoq bo'yoqchi bo'yoq ishlab chiqarish korxonalarini shular jumlasidandir. Bo'yash ishlarida ko'p miqdorda organik erituvchilar asosidagi lok-bo'yoq materiallaridan haligacha foydalanish ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalariga teran e'tiborni talab qiladi.

Lok-bo'yoq materiallarining keng ko'lamda qo'llanilishi tasodifiy emas, u ko'pgina afzalliklar bilan bog'liq: rang-baranglik, yuza xossalari va fakturasining turli-tumanligi.

Parda (plyonka) hosil qiluvchi moddalar - biror sirtga surilganda qisqa vaqt ichida parda hosil qiladigan sintetik va tabiiy moddalar. Bu pardalarning muhim hissasi shundaki, ular sirtga adgeziyalanadi (yopishib turadi), qattiq, elastik, nam o'tkazmaydi, tashqi muhit ta'siriga chidamli. Plyonka hosil qiluvchi moddalar sirtga organik erituvchilarda eritilgan eritmalar holida, suv suv yoki plastifikatorlardagi dispersiya holida beriladi. Plyonka rangsiz (pigment bo'lmasa) yoki sariqdan to'q jigar ranggacha bo'lishi mumkin. Plyonka hosil qiluvchi moddalar tabiiy (o'simlik va hayvon yelimi, zig'ir, tung digidratlangan kanakunjut moyi, kanifolni qayta ishlash mahsulotlari) va sintetik (alkid, epoksid, perxlorvinil smolalari) xillariga bo'linadi.

Turli xil polimer materiallarini olish uchun qattiqlikka olib keluvchi reaksiyon faol oligomerlar bo'lib, ular massasi 5*(102-104) bo'lgan quyi molekulyar birikmalar hisoblanadi. Bu oligomerlar issiqlik yoki maxsus qattiqlashtiruvchi moddalar ta'siri yordamida turli xil kimyoviy reaksiyalarga kirishuvchi reaksiyon faol funktsional guruhlarni o'z tarkibida saqlashi kerak. Reaksiyon faol oligomerlar asosda chiziqli, tarmoqlangan va choklangan (uch o'lchamli) kerakli tuzilishga ega polimerlar olishi yoki somonomerlarning xohlagan munosabatida turli xil sopolimerlarni sintez qilishi mumkin bo'ladi.

Oligomeri bo'lgan plyonka hosil qiluvchi sistemalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Yuqori molekulyar birikmalarga qaraganda oligomerlar ko'pgina erituvchilarda eriydi. Molekulyar massasi kichikligi sabab ularni asosiy modda sifatida ishlatib uning miqdorini 40% dan kam bo'lmagan miqdorda ishlatish mumkin. Agar ishlatiladigan oligomerni qovushqoqligi past bo'lsa undan erigan holdagi (organik erituvchilarda eritilgan eritma holida) lok bo'yoq materiallarini asosiy modda sifatida (90%), boshqa hollarda esa hatto (100%li plyonka hosil qiluvchi sistema) lok materiallarini yaratish imkoni mavjud bo'ladi.

Oligomerlar o'z tarkibida yetarlicha gidrofil funktsional guruhlarni (-OH, -COOH) saqlasa, ularni suv bilan suyultirilgan sistemalarni tayyorlashda foydalaniladi. Qattiqlashtiruvchi oligomerlarni nisbiy yuqori yumshash harorati (70°C dan yuqori) bo'lganlarni kukunli termoreaktiv material olish uchun foydalansa bo'ladi.

Shunday qilib, oligomerlar asosan ulardan erigan holdagi plyonka hosil qiluvchi sistemalar, hamda 100%li (suyuq va kukun holatda) kompozitsiyalardan foydalaniladi. Plyonka hosil qiluvchilar sifatida eng ko'p qoplama olish uchun reaksiyon qobiliyatli guruhga ega bo'lgan polimerlanish darajasi kichik oligomerlar qo'llanilib, bu oligomerlar qattiqlashtirilgan to'rtli strukturaga ega polimerlarga aylanishi mumkin. Qattiqlashuv faqatgina oligomerdagi (o'z o'zidan qattiqlashuv) funktsional guruh evaziga yoki oligomer funktsional guruh bilan maxsus qo'shimcha moddalar- qattiqlashtiruvchilar bilan o'zaro ta'sirlashuvda amalga oshishi mumkin. O'z-o'zini qattiqlashtiruvchilar qobiliyatiga masalan (-OH, -COOH) reaksiyon faol guruhlarni tarkibida saqlagan oligoefirlar, hamda fenol-, karbamid- va melaminformaldegidli oligomerlar va poliorganosiloksanlar ega.

EMULSIYALARINING HOSIL BO'LISHI SABABLARI VA TAVSIFLARI

**Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, Qo'shakov Ismoiljon Ikromjon o'g'li,
Uzakbayev Kamal Ahmet uli**

Neft emulsiyalari deganda mayda dispers holatidagi neft va qatlam suvlarining mexanik aralashmasi tushuniladi.

Konlarni ishlatish jarayonida neft va suvning o'zaro miqdoriy nisbati o'zgarib turganligi sababli, neft emulsiyalarining xususiyatlari ham keng miqyosda o'zgarib turishi mumkin.

Qatlamda va quduq tubida neft emulsiyalari bo'lmaydi. Emulsiyalar quduq tanasida hosil bo'lib, ularning hosil bo'lish tezligi nasosli, kompressorli va favvora usulida ishlayotgan quduqlarda turlicha bo'ladi.

Neftni chuqurlik nasoslari yordamida qazib olishda, emulsiyaning hosil bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: plunjerning harakat uzunligi; qabul qiluvchi va tashlama klapanlarning o'lchamlari; nasosda gazning mavjudligi.

Favvora va kompressor quduqlarida bosimning pasayishi va neftdan gazning tez ajralishi natijasida suyuqliklarning tez aralashishi kuzatiladi. Eng mustahkam emulsiyalar neft olishning kompressorli usulida, ishchi agent sifatida havo ishlatilganda hosil bo'ladi. Buning sababi neft tarkibidagi naften kislotalar havo kislorodlari bilan oksidlanib, samarali emulgatorlarga aylanadilar.

Neft emulsiyalarida ikki xil faza mavjud bo'lib bular: ichki va tashqi fazlarga bo'linadi. Bir suyuqlik ikkinchi suyuqlik ishida tomchilar ko'rinishida joylashadi. Tomchilar ko'rinishidagi suyuqlik dispers faza (ichki) deyiladi. Tomchilarni o'rab turuvshi muhit dispersion muhit (tashqi) deb yuritiladi.

Dispers faza va dispersion muhitning tavsifiga qarab to'g'ri ko'rinishdagi va teskari ko'rinishdagi emulsiyalarga bo'linadi.

To'g'ri ko'rinishdagi emulsiyalarda neft suvda tomchilar sifatida mavjud bo'ladi va bu emulsiyalar neft – suv emulsiyalari (NS) deb ataladi. Teskari ko'rinishdagi emulsiyalarda suv neftda tomchilar sifatida mavjud bo'ladi va bu emulsiyalar suv – neft emulsiyalari (SN) deb ataladi.

Konlarda emulsiyalar tarkibida qancha suv borligi to'g'risida ularning rangiga qarab baho beriladi. Masalan: emulsiya tarkibida 10% suv bo'lsa, uning rangi toza suvsiz neft rangida bo'ladi; 15 – 20 % suv bo'lsa – emulsiyaning rangi jigarrangdan sariq ranggacha o'zgaradi; 25 % suv bo'lsa – emulsiya sariq rangda bo'ladi va x.k.

NS emulsiyalarida tashqi faza – suv hisoblanadi va ular xohlagan vaqt suv bilan birikishi mumkin, hamda yuqori elektr o'tkazuvchanligiga ega bo'ladi.

SN emulsiyalarida neft–tashqi faza hisoblanadi va ular uglevodorodli suyuqliklar bilan birikishi mumkin va kichik o'tkazuvchanlikka ega bo'ladi.

Neft emulsiyalarining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri ularning mustahkamligidir, ya'ni ma'lum bir vaqt ishida neft va suvga parshalanib ketmasligi.

Neft emulsiyalarining mustahkamligiga quyidagi omillar katta ta'sir o'tkazadi:

1. tizimning disperslilikligi;
2. fazalar tutash yuzasida himoya qobig'ini hosil qiluvshi emulgatorlarning fizik – kimyoviy xossalari;
3. aralashayotgan suyuqliklarning harorati va h.k.

Emulsiyalarning yana bir xossalarini belgilovshi asosiy tavsif disperslilikdir. Dispers faza tomchilari kattaligi 0,1 – 100 mkm gacha bo'ladi. Bir xil diametrli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar – monodispers, har xil diametrli tomchilardan tashkil topgan dispers tizimlar – polidispers tizimlar deyiladi. Neft emulsiyalari har xil o'lchamdagi zarrachalardan tashkil topganligi uchun polidispers tizimlar turiga kiradi. Emulsiyani samarali buzish, uning keksayishini sekinlashtirish uchun deemulgator quduq tubiga beriladi. Bunda suv-neft emulsiyasi, neft-suv emulsiyasiga aylanadi, tashqi faza suv bo'lib, qovushqoqligi kichik, ishqalanish qarshiligi natijasida bosim yo'qotilishi kamayadi. Deemulgator samaradorligi uning sarfi, tayyor neft sifati minimal temperatura va tindirish vaqti bilan tavsiflanadi.

NEFTLARNI SUVSIZLANTIRISHNING USULLARI

**Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, Qo'shakov Ismoiljon Ikromjon o'g'li,
Abdullayev Hasan Rahmatovich**

Neftni suvsizlantirishning ikkinchi eng muhim sababi, u qazib olingan tumandan qatlam suvi bilan birgalikda tashib keltirish katta xarajatni talab qiladi.

Suvlangan neft qatlam suvlari bilan birgalikda tashilganda qayta haydovchi hajmlarni tashkil qilmasdan, neft bilan suvning emulsiyasining qovushqoqligi toza neftga nisbatan yuqori bo'ladi. Neftning tarkibidagi suvning miqdori 15%ga oshganda tashish xarajatlari har bir qayta haydashda 3-5% o'sadi.

Shuning uchun yuqoridagi mulohazalarga bog'liq holda neftning tarkibidagi qatlam suvlarni va tuzlarni kon sharoitida ajratish zarurdir. Neftni suvsizlantirishda suv bilan birgalikda suvda erigan tuzlar va mexanik aralashmalar ham chiqib ketadi. Bu aralashmalar quvur uzatmalarda va apparatlarda korroziya muhitni keltirib chiqaradi.

Konlarda neft suvsizlantirilganda undan suvning, tuzning va mexanik aralashmalarning asosiy massasi chiqib ketadi., neft uzatmalarining boshqarmasiga me'yorga binoan 1-2 %dan yuqori bo'lmagan suvli tarkibda neft topshiriladi. Ammo bu norma o'zgarmasdan qolmaydi va uni 0,5 %ga pasaytirish me'yori saqlanib qoladi, iqtisodiy va texnologik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Konlarda neftni suvsizlantirish jarayoni—uni qayta ishlashga tayorlashning birinchi bosqichidir. Neftni qatlam suvlaridan, tuzlardan va mexanik aralashmalardan chuqur tozalash ishlari tuzsizlantirish jarayonida amalga oshiriladi. Shu maqsadda suvsizlantirilgan neft chuchuk suv bilan jadal aralashtiriladi va hosil bo'lgan emulsiya parchalanadi.

Neft va qatlam suvlari qazib olingandan so'ng bir-biri bilan aralashadi va emulsiya hosil bo'ladi. Neftli emulsiyaning xossalari, mustahkamligi katta qiymatda neftni qazib olish usuli va neft konlarining ishlatish sharoitiga bog'liq.

Neftdagi suvning, tuzning va mexanik aralashmalarning tarkibi tovar tashish tashkilotiga yetkazib beriladigan toza neftning miqdorini aniqlashda juda muhim hisoblanadi.

Hozirgi zamonda suv neft ko'rinishidagi neft emulsiyalarini parchalashning quyidagi usullari qo'llaniladi: gravitatsion sovuq ajratish, tsentrifugalash, sizdirish (filtratsiya), issiq kimyoviy ta'sir etish. Bu usullarning bir yoki bir nechta birgalikda ham qo'llanilishi mumkin.

Bu usul saqlagichlarda neft va suv juda ham aralashmaganda neftdagi qatlam suvi 50 % va undan yuqori bo'lganda qo'llaniladi. Emulsiyalarning sovuq gravitatsion parchalanishi uchun deemulgatorlar ishlatiladi. Neftni yig'ish tizimiga deemulgatorlarni haydash emulsiyalarning quvuruzatgichlarda hosil bo'lishini oldini oladi va mavjud emulsiyalarni parchalashga yordam beradi. Bu bilan neft va suvni neftni tayyorlash qurilmalariga birgalikda uzatish imkonini beradi.

Quvur ichi deemulsatsiyasi. Eksploatatsion quduqlarning quvurlararo bo'shlig'iga 1 t neftga 15 gr miqdoridagi deemulgator nasosi orqali deemulgator uzatiladi. Quduq tubidan tayyorlash qurilmasigacha harakat davomida kuchli aralashadi.

Bu usul deemulgator samaradorligiga, aralashtirish vaqti va intensivligiga, suv miqdori va temperaturaga bog'liq. Yuqoridagi faktorlar ortishi bilan jarayon tezlashadi. Lekin neftdagi asfalten va zichlik ortishi bilan tezlik pasayadi.

Sentrifugalash. Sentrifugada hosil bo'luvchi inertsianing katta kuchi turli zichlikka ega bo'lgan suyuqliklarni ajratish uchun ishlatilishi mumkin.

Sizdirish (filtratsiya). Mustahkam bo'lmagan emulsiyalarni ajratish uchun sizdirish qatlamidan o'tkazish mumkin. Sizdirish qatlami sifatida shag'al, maydalangan shisha, yog'och va metall qirindilari, shishasimon tuzilma va boshqalardan foydalanish mumkin. Filtrlar kolonnalar ko'rinishida bo'lib, ularning o'lchamlari haydalayotgan emulsiya hajmiga, qovushqoqligiga va harakat tezligiga bog'liq. Neft emulsiyasi kolonnaga pastdan yuboriladi va filtrdan o'tadi. Bu erda suv ushlab qolinadi, neft esa kolonnaning usti bilan erkin o'tib ketadi.

NEFT SANOATI ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARIDAGI OQOVA SUVLARNI TOZALASH TEXNOLOGIYASI

Bokiyeva Shahnoza Komilovna, Sadritdinov Abdusano Baxodirovich.

Suv tabiatdagi eng oddiy moddalardan bin, lekin yerda hayot davom etishi uchun uning xizmati beqiyosdir. Suv juda ko'p tabiiy jarayonlarni borishida asosiy rolni o'ynaydi. Yeming asosiy qismi suvdan iboratdir. Yerdagi mavjud barcha moddalarning tarkibida suv uchraydi. Insonlar tanasining 65%i suvdan iboratdir, uning miyasini 85%ini suv tashkil etadi. Birorta tirik oiganizmlarning, o 'simliklarning hayotini suvsiz tasavur etib bo'lmaydi. Shuning uchun suv resurslarini asrab-avaylash, uni ifloslamaslik, samarali ishlatish asosiy vazifalardan biridir. Hozirgi kunda yerda suvning umumiy miqdori 1386 mln.km³ tashkil qiladi, shundan 97,5 %i sho'r suv, qolgan chuchuk suvlarni tashkil etadi. Chuchuk suvning umumiy miqdori — 35 mln.km³ ga teng. Dunyo bo'yicha chuchuk suvning ishlatilishi yiliga 3900 mlrd m³/yil ni tashkil qiladi. Shu miqdorning yarmisi butunlay ishlatiladi, ya'ni butunlay yo'qoladi, qolgan yarmi esa oqova suv ko'rinishida qaytib keladi.

Tabiiy suvlar o'zida erigan tuzlarning miqdori, ya'ni mineralligi bo'yicha quyidagi sinflarga bo'linadi: (g/l da)

- 1) chuchuk suvlar (<1 g/l dan past);
- 2) sal tuzli (1-10);
- 3) sho'r (10-50);
- 4) namakob (>50 g/l dan yuqori).

Suvda erigan anionlarning borligiga qarab suvlar gidrokarbonatli, sulfatli va xloridli suvlarga bo'linadi. Suvlarning qattiqligi — suvda erigan Ca⁺² va Mg⁺² ionlarining konsentratsiyasiga qarab belgilanadi (mmolChekv/1). Qattiqlikni o'zi karbonatli va nokarbonatli xillariga bo'linadi. Suvning umumiy qattiqligi 2 xil qattiqlikning yig'indisi orqali baholanadi. Bunda karbonatli suvlar suvda erigan kalsiy, magniy bikarbonat tuzlarining miqdori bilan, nokarbonatli suvlarda esa kalsiy, magniy xloridli, sulfatli, nitratli tuzlarni erigan miqdori bilan baholanadi.

Adabiyotlar:

1. А.Г. Баландина, Р.И. Хангильдин, В. А. Мартяшева, IV Международная научно-практическая конференция с элементами научной школы для молодежи "экологические проблемы нефтедобычи-2014". Нефтегазовый бизнес. Уфа, 2014. Стр. 111.
2. Bokiyeva, S. K., Do'stov, H. B., Sattorov, M. O. (2021). Neftni tayyorlash qurilmalari oqova suvlarini neft va mexanik zarrachalardan tozalash usullari. *Science and Education*, 2(4), 150-156.
3. Бокиева, Ш. К., Тошев, Ш. Ш., Дустов, Х. Б. (2021). Исследования химических методов очистки нефтепромысловых сточных вод. *Scientific progress*, 1(6), 904-908.

MAGISTRAL GAZ QUVURLARI TARMOQLARINING KONSTRUKTIV YECHIMLARI

Ibodullayev A.F., Sattorov M.O.

Magistral gaz quvur tarmoqlarining zamonaviy qurilishi konstruktiv yechimlarning uchta asosiy sxemasiga tayanadi: yer ostiga yotqizilgan, yer ustiga yotqizilgan, yer ustidan o'tkazilgan magistrallik gaz quvur tarmoqlari.

Magistral quvur o'tkazgichlarini qurishda elektr payvandli uglerod po'lat quvurlaridan foydalaniladi. Magistrallik quvurlarini qurishdan oldin, ularni yotqiziladigan joylarda geofizik va geodezik izlanishlar olib boriladi.

Magistral gaz quvurlari o'tish joyi har 500 metrda o'zining shaklini va yotqizilish usulini o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun har 500 metrda tuproqni geofizik va geologik usullarda o'rganiladi. Har bir maydon uchun quvur diametrini tanlayotganda iqtisodiy xarajatlar hisobga olinib eng maqbuli tanlanadi. Iqtisodiy xarajat quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:


$$R = EK + E$$

R - keltirilgan xarajatlar; E - kapital qo'yilmalarning samaradorligini hisobga oluvchi me'yoriy koeffitsiyent;

$$E = 0,15$$

K - neft quvurini qurish uchun ketgan kapital qo'yilmalar; E - ekspluatatsion xarajatlar.

Magistral gaz quvur tarmoqlarini yer ostiga yotqizish (1-rasm) quyidagi asosiy me'yorlar bilan xarakterlanadi: neft va gaz quvurlari tarmoqlarining eng yuqorida joylashgan quvuriga gacha bo'lgan h_{yotq} yotqizish chuqurligi quvur diametri 1000 mm gacha bo'lganda 0,8 m dan kam bo'lmasligi va quvur diametri 1000 mm va undan oshiq bo'lganda 1 m dan kam bo'lmasligi lozim, quritishga tortilish zarur bo'lgan botqoqliklar va torfli qatlamlarda $h_{yotq} = 1,1$ m deb qabul qilinadi, qumli barxanlarda $h_{yotq} = 1$ m deb qabul qilinadi (barxanlar orasidagi pastliklar ning eng pastki belgisidan hisoblaganda), qoyatoshli qatlamlarda va botqoqlik joylarda $h_{yotq} = 0,6$ m deb qabul qilinadi; diametri 700 mm gacha bo'lgan quvurlar tarmoqlari uchun transheyani tubi bo'yicha V kengligi $D_{sh} + 300$ mm deb qabul qilinadi, 700 mm va undan ortiq diametrli quvurlar tarmoqlari uchun $B = 1,5 * D_{sh}$ deb qabul qilinadi, 1200 va 1400 mm diametrli quvurlar tarmoqlari uchun transheyani qiyaligi 1:0,5 dan ortiq bo'lganda $B = D_{sh} + 500$ mm deb qabul qilinadi.



1-rasm. Gaz quvur tarmoqlarini yer ostidan o'tkazish sxemasi:
1 — quvurlar tarmog'i; 2 — transheya profili; 3 — qayta ko'mish.

Har bir hisobda quvurni maqbul sharoit uchun tanlab beriladi. Texnik hisoblar bajarilishida me'yorlarga rioya qilinadi. Bu me'yorni quvur transporti uchun texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar me'yorlari deb ataladi. Texnik hisobdan asosiy maqsad quvur transportiga minimal xarajat qilishga moslashtirilib loyihalash hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. S.A.Djumayev, S.Sh.Xabibullayev, J.Sh.Baxtiyorov, M.M.Atabayeva. Magistrallik gaz quvurlariga xizmat ko'rsatish. O'quv qo'llanma. Toshkent. «Faylasuflar» nashriyoti, 2014. – 136 b.
2. R. Winston Revie. Oil and gas pipelines. Integrity and Safety Handbook. New Jersey. 2015. P.855

QUQUQLARNI GAZOGIDRODINAMIK TADQIQOTLARNI TASNIFLASH

Obidov Hamid Olimovich - katta o'qituvchi, Karimov Siroj Shodiyevich - magistr.

Gidrodinamik tadqiqotlarni tasniflash - bu tadqiqotlarning maqsadi bilan belgilanadi va oldinga quyilgan vazifaga bog'liqdir. Gaz konini o'rganilganining turli bosqichlarida (uyumni o'zlashtirish, undan tajriba-sanoat miqyosida foydalanish va uyumni ishlatish) gazogidrodinamik tadqiqotlarga nisbatan quyiladigan talab turlicha bo'ladi. Umuman gaz quduqlari tadqiqoti quyidagi turlarga bo'linadi: boshlang'ich, joriy va maxsus tadqiqotlar.

I. Boshlang'ich tadqiqotlar barcha razvedka va ishlatish quduqlarida amalga oshiriladi. Boshlang'ich tadqiqotlar asosiy bo'lib, to'la hajmda amalga oshiriladi va qatlam parametrlarini, uning mahsuldorlik tavsifini, quduqning mahsulot bera olish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, debit bilan quduq tubidagi va og'zidagi bosim va temperaturaning bog'liqligini, oqimda suyuq va qattiq zarrachalar mavjudligi va yer yuzasiga chiqarilishini hisobga olgan holda quduq ish rejimini, boshlang'ich qatlam bosimini, qatlamni ochishning darajasi va sifatini va boshqalarni belgilash imkonini beradi. B a'zi hollarda kesimni bir paytda ochish imkoniyatini belgilash va kesimning mahsuldorlik tavsifini aniqlash maqsadida boshlang'ich tadqiqotlar har bir oraliq bo'yicha amalga oshiriladi. Qoida tariqasida razvedka maydonlarida tadqiqotlar atmosferaga gaz chiqarib amalga oshiriladi.

II. Konni ishlatish jarayonida foydalanish quduqlarida joriy tadqiqotlar o'tkaziladi. Joriy tadqiqotlarning asosiy vazifasi konni ishlatishni tahlil va nazarot qilish uchun zarur ma'lumotlarni olishdan iborat. Joriy tadqiqot hajmi konning aniq sharoitiga qarab belgilanadi va asosan quduqlarni gidrodinamik tadqiq qilishdan iborat bo'ladi. Bundan maqsad, ilgari qabul qilingan parametrlarni tekshirishdan va ularni konni ishlatish jarayonida o'zgarish qonuniyatlarini belgilashdan, agar tekshirilayotgan parametrlardagi o'zgarishlar jiddiy bo'lsa loyihaviy ko'rsatkichlarga tegishli o'zgartirishlar kiritishdan iborat bo'ladi.

Bundan tashqari, vaqti-vaqti bilan quduqda ko'zda tutilgan muddatlarda tadqiqotlarni to'liq bajarish hamda quduqlarning ishlatishni jadallashtirish va kapital ta'mirlash ishlaridan so'ng tadqiqotlar o'tkazib turish kerak.

III. Maxsus tadqiqotlar, qoida bo'yicha, o'rganilayotgan konning o'ziga xos sharoitlari bilan bog'liq holda u yoki bu parametrlarni aniqlash uchun o'tkaziladi. Maxsus tadqiqotlar sirasiga maxsus tanlangan quduqlarda gaz-suv tutash yuzasi holatini nazorat qilish, turli ish rejimlarida quduq uskunalarning zanglash darajasini o'rganish, uyumni ishlatish jarayonida ayrim qatlamlarning zaiflashish darajasini va bir necha qatlamlar birgalikda ochilganda gazning bir gorizontdan ikkinchisiga oqib o'tish ehtimolini aniqlash, quduq tubi zonasida namlik miqdorini oshishidan y uzaga keladigan va buzilishlarning quduqning unumdorligiga ta'sirini o'rganish, quduqni jadallashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish (qo'shimcha teshiklar ochish, SKO, quduq tubi zonasini mustahkamlash, sement ko'priklar o'rnatish va boshqalar) kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Добрынин В.М., Вендельштейн Б.Ю., Резванов Р.А., Африкин А.Н. Геофизические исследования скважин. Издательство «Нефть и газ». М. 2004.

2. N.N. Maxmudov, N.X. Ermatov, A.X. Qarshiyev, A.I. Abdirazikov, S.P. Abduraxmanova. "Neft va gaz quduqlarini ishlatish" "Lesson Press" Darslik. Toshkent – 2022 yil.

3. S. Sh. Karimov, H.O. Obidov. Quduqlarni gazogidrodinamik tadqiqotlarga tayyorlash. Science and education scientific journal. Volume 3 Issue 5, May. 2022. p.467-471.

ЮҚОРИ ҚАТРОНЛИ НЕФТЛАРНИ ҚОВУШҚОҚЛИГИНИ ПАСАЙТИРУВЧИ СИРТ-ФАОЛ МОДДАЛАР

Рахимов Бобомурод Рустамович, Яхёев Жавахирбек Жамшид ўғли

Ҳозирги пайтда республикада нефт маҳсулотларини қувурлар орқали ташишда сирт-фаол моддалардан, электро-физик ва бошқа усулларни қўллаш борасида илмий ва амалий натижаларга эришилди. Маҳаллий хомашёлар асосида сирт-фаол моддалар ишлаб чиқиш ва уларни оғир нефтларни қовушқоқлигини камайтириш, шунингдек экспорт қилинадиган кўндирмаларни ишлатишни камайтириш зарур.

Юқори катрон ва юқорипарафинли нефтларда улар паст самарадорлик намоён қилади. Ёғ-мой саноатида ҳам пахта мойини гидратациялашда фосфолипидли чўкмалар олинади, улар ўз таркибида кўп миқдорда фосфатидлар тутади (лецетин ва кефалин ҳамда ноионоген СФМ). Биз томонимиздан техник пахта фосфатид концентрати сарфини юқори қовушқоқли маҳаллий нефтларни оқувчанлик кўрсаткичларига таъсири ўрганилди. Маҳаллий нефтларда динамик силжиш кучланиш (Па) ва динамик қовушқоқлик (Па·с)ни ўлчашга доир синовлар 200 °С хароратда амалга оширилди (1-жадвал).

1-жадвал Юқори қовушқоқли нефтларни динамик силжиш кучланиши ва динамик қовушқоқлиги ўзгаришини техник пахта фосфатид концентрати (СФМ-1) миқдориغا боғлиқлиги

Нефтнинг реологик кўраткичлари	Техник пахта фосфатид концентратини куйидаги миқдорларида, г/т						
	0	50	100	200	300	400	500
Жарқоқ конидан олинган юқори қовушқоқли нефт, зичлиги 873 кг/м ³ , қотиш харорати +50С, парафин миқдори 6,3%							
Динамик силжиш кучланиши, Па	21,2	20	18,5	14,3	12,4	8,2	6,9
Динамик қовушқоқлиги, Па·с	50,1	48,4	46,3	40	32,5	24,4	18,7

Жадвалдан кўришиб турибдики, Жарқоқ нефт конидан олинган юқори қовушқоқли нефт таркибида техник пахта фосфатид концентратини миқдорини ортиши билан нефтнинг динамик силжиш кучланиши ва динамик қовушқоқлиги пасаяди. Жарқоқ кон нефтига техник пахта фосфатид концентратини 500 г/т миқдорда қўшилганда динамик силжиш кучланиши 6,9 Па ва динамик қовушқоқлик 18,7 Па·с га тенг бўлади. Мазкур нефтларни таркибида техник пахта фосфатид концентрати миқдорини янада ортириши, уларни ташиш бўйича сифатига ва таннархига салбий таъсир кўрсатади. Бу ҳолат шу билан тушунтириладики, техник пахта фосфатид концентрати нефтга ва унинг структурасига таъсир этиб, майда ўзаро боғланмаган кристалларни ҳосил бўлишида парафинлар кристалланишга йўналтиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Набиев А.Б. Разработка технологии получения веществ, снижающих вязкость тяжелых нефтей и их применение // Авт. дисс. док фил (PhD) по тех наук. Ташкент. – 2018, С. 50.
2. Рахимов Б.Р., Набиев А.Б., Адизов Б.З., Абдурахимов С.А. Понижитель вязкости тяжелых нефтей на основе хлопкового соапстока. Universium: Технические науки. 2020. №5(74). С.59-62

ОБЩИЕ СВЕДЕНИЯ О ЦЕОЛИТАХ

Тиллоева Ш.Ф. Расулов А.Д.

Природные цеолиты представлены главным образом клиноптилолитом, морденитом, эрионитом, анальцимом, филлипситом, ломонтитом, шабазитом, натролитом, десмином, гейландитом. Из них пригодными для практического использования являются клиноптилолит, морденит, шабазит, эрионит. Синтетические молекулярные сита отличаются от других адсорбентов практически идеально однородной микропористой структурой и способностью избирательно адсорбировать молекулы малых размеров при низких концентрациях адсорбируемого компонента. В Узбекистане наибольшее применение получили синтетические молекулярные сита марок КА, NaA, CaA, NaX, CaX. Первый индекс марки цеолитов соответствует форме катионов (например, K^+ , Ca^{2+} , Na^+), а второй обозначает тип кристаллической решетки. Цеолиты имеют следующие размеры входных «окон»:

Цеолит	КА	NaA	CaA	CaX	NaX
Размер «окон», м Å	$3 \cdot 10^{-10}$ (3)	$4 \cdot 10^{-10}$ (4)	$5 \cdot 10^{-10}$ (5)	$8 \cdot 10^{-10}$ (8)	$10 \cdot 10^{-10}$ (10)

В промышленности выпускаются цеолиты со связующим и без него. В качестве связующих веществ используют каолиновые и бентонитовые глины или их смеси (в цеолитную массу добавляют 10—20% глины). Цеолиты без связующего по физическим свойствам близки к обычным цеолитам, но превосходят их по механической прочности.




Рис. 1. Распределение пор по размерам в микропористых адсорбентах

Широким распределением пор отличаются, в частности, активные угли, и поры в них доступны практически для молекул всевозможных соединений. Цеолиты же, как отмечалось, имеют однородные поры (от 3 до 13 Å). Распределение пор, характерное для цеолитов, силикагелей и активных углей, условно показано на рис. 1.

Литература:

Tegirmondagi texnologik jarayonlar bir yoki bir necha oqimdan boshlanib un tortish davrida o'nlab, yuzlab oqimlarga ajralib (yirikligi va sifati bo'yicha) alohida ishlov beriladi. Oxirida bir yoki bir necha nazoratchi oqim orqali tayyor mahsulot chiqadi.

Zamonaviy tegirmon va yorma zavodlarida ishlab chiqarish texnologik jarayoni 3 ta bo'limda amalga oshiriladi.

Tegirmonlarda:


1. Donni tozalab, yuzasiga ishlov berib un tortishga tayyorlash.

2. Un tortish.

3. Un navlarini tayyorlash, vitaminlash, qoplash va qadoqlash. Tegirmonni birinchi (tayyorlov) bo'limida don massasi begona aralashmalardan tozalanadi. Donning yuzasiga quruq va suv bilan ishlov beriladi. Har xil sifatli donlardan un tortishga mos aralashma tayyorlanadi.

Ikkinchi (un tortish) bo'limida donni yanchish jarayonida donlar birinchi yirik yanchilib yorma, dunst va kepak ajratib olinadi. Hosil bo'lgan yorma va dunst sifati bo'yicha saralanadi, qayroqlanadi va mayin yanchilib un holiga keltiriladi.

Uchinchi (qoplash) bo'limining vazifasi ikkinchi bo'lim orasida boshlanadi. Bunda hosil bo'lgan har xil sifatli un oqimlaridan un o'lchanib aralashtiriladi va davlat standartlari talablariga javob beradigan un navlari oqimlari hosil qilinadi.



1-rasm. Valli dastgoxning texnologik sxemasi:

1–mahsulot miqdorini ko'rsatish moslamalari, 2,9–ta'minlash valchalari, 3,4–sachrashni chegaralovchilar, 5–val etagi, 6–shyotkatozalagich, 7,8–dozalovchi valchalar, 10–qo'zg'aluvchan valni to'g'irlash va o'rnatish mexanizmi, 11–tyaga, 12–valnitozalash pichog'i.

Maydalash jadalligiga vallar yuzasining shakli, tishlar tavsifi, vallarning aylanish tezliklari nisbati, ular orasidagi masofa kattaligi, solishtirma yuklama, donning texnologik xossalari va boshqa omillar ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Grain processing: effects on mixing, prehension, and other characteristics of feeds Get access Arrow, Journal of Animal Science, Volume 75, Issue 3, March 1997, Pages 880–884
2. Pankratov G.N. and Kandrov R.Kh. Investigation of the process of dressing grits in the grinding of grain triticale. Food processing industry, 2017, no. 7, pp. 30–33. (In Russian).

MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI ASOSIDA QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINI QURITISH

Jo`rayev X.F., t.f.d., professor, Majidova D.H., M59-23 TJBACT magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda qishloq xo`jalik mahsulotlarini quritish uchun muqobil energiya manbalaridan foydalanish bo`yicha dunyo amaliyoti va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlar katta ahamiyatga ega ekanligi, tabiiy resurslarning dunyo bo`yicha zaxiralarning kamayib borayotganligi, shuningdek respublikamizda energiya samaradorligiga erishish maqsadida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo`yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so`zlar: quritish kamerasi, xavo kollektori, ichki temperatura, namlik

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish borasida keng ko`lamli ishlar olib borilmoqda, bunga yurtimizda tabiiy, ilmiy va amaliy imkoniyatlar mavjud. Xususan mamlakatimizda quyosh qurilmalar uchun zarur bo`lgan tabiiy resurslarning zahiralari mavjudligi mazkur yo`nalishda ishlab chiqarishni sanoat asosida olib borish imkoniyatlarini yaratadi. Olimlarimizning mazkur sohadagi ilmiy ishlanmalari va eksperimental tajribalari jahon miqyosida e`tirof etilgan. O`zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishda, muqobil energiya manbalaridan eng avvalo quyosh energiyasidan foydalanish sohasida ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish borasida salmoqli tajriba to`plangan, ular yuzasidan bir necha yillar mobaynida olimlarimiz tomonidan ishlanmalar olib borilmoqda. Muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda, mustaqil va murakkab energiya hamda issiqlik ta`minoti tizimlarini yaratish, ularni iqtisodiyotning turli sektorlariga joriy etish va keng qo`llashga doir ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik-texnologik ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan istiqbolli foydalanish, undan foydalanishning xuquqiy asosini ta`minlash borasida keng ko`lamdagi ishlar olib borilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 26-maydagi "2017-2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida" gi Qarori fikrimizga yaqqol misol bo`la oladi [1]. Bugungi kunda yer yuzida aholi sonining yil sayin oshib borishi hamda fan-texnikaning tez sur`atlarda rivojlanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik hamda energetik muammolarni vujudga kelishiga sabab bo`lmoqda. Muqobil energiya manbalaridan boshqa sohalarda bo`lgani kabi qishloq xo`jalik mahsulotlarini quritish soxasida ham keng ko`lamda izlanishlar olib borilmoqda. Bir qancha tadqiqotlar olib borilganiga qaramasdan haligacha o`z yechimini topmagan muammolar mavjud [2]. Quyosh quritgichlarining afzalligi shundaki qishloq xo`jaligi mahsulotlarini quritishda muqobil energiyadan foydalanib qisqa vaqt davomida, sifatli mahsulotlarni olish imkonini beradi. Ayni paytda, ko`plab bog`bonlar o`z bog`laridagi sabzavot va mevalarni sifatli saqlab qolish masalasiga duch keladi. Ko`pchilik konserva shaklida saqlashga tayyorgarlik ko`rishadi. Biroq, meva yoki rezavorlar keyinchalik saqlash uchun quritilishi kerak bo`lgan holatlar ham mavjud. Buning uchun meva quritgichdan foydalanish qulay va samaralidir. Samaradorligi shundan iboratki, avvalo mevalar sifati va undagi vitaminlar saqlanadi va albatta vaqt unumdorligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

5. Костылев А.А., Миляев П.В., Дорский Ю.Д. Статистическая обработка результатов эксперимента на микро- ЭВМ и программируемых калькуляторах. –Л.: Энерго атом издат
6. Xolmominov J. T. Tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishning ekologik - huquqiy muammolari. – T. 2009

KOMBINATSION QURITISH USULLARI TAHLILI

Qobilov.H.X.,PhD, Raxmonkulova X.O.,M59-23 TJBAKT guruh magistranti

Kombinatsion quritish usuli. Kovektiv-kontakt, radiatsion-konvektiv yoki boshqa 2 va undan ortiq usullarni birgalikda olib borish-kombinatsion quritish usuli deb ataladi. Xom ashyoning holati turlicha bo'lishi mumkin: A) xarakatlanayotgan ma'lum qalinlikdagi material holatida. B) xarakatlanmayotgan ma'lum bir qalinlikdagi material holatida. V) muallaq yoki yarim muallaq psevd qaynash holatida. Qaysi bir holatda bo'lishidan kat'iy nazar quritish effektiga quyidagi ko'rsatgichlar ta'sir qiladi. Qurituvchi agentning harorati, tezligi, urug'ning holati, qalinligi va qizdirish haroratiga bog'liq. Konvektiv quritish usulida 100-200mm qalinlikdagi urug'larni 40-60 minut davomida qurituvchi agentning harorati 180 °C dan oshirmagan holda 60-70 °C gacha qizdiriladi. Ushbu usulda quritish barabanli pechlarida olib borilsa, mahsulotning holati yarim muallaq holda bo'lib, quritish davri 15-20 minutni, qurituvchi agentning harorati 20-30 °C ni va mahsulotning qizdirilish darajasi 60- 65 °C gacha bo'ladi. Quritish jarayoni kontaktli-konvektiv usuli bilan olib borilsa, mahsulotning holati muallaq yoki psevd qaynash holatida bo'lib, quritish muddati bir necha sekund davomida, qurituvchi agentning harorati 350-700 °C gacha bo'lishi mumkin. Mahsulotning qizish darajasi esa deyarli sezilmaydi yoki quritishgacha bo'lgan holatidan bir necha gradus yuqori bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, qurituvchi agentning harorati qancha katta va quritilayotgan mahsulotning holati psevd qaynash holatiga yaqin bo'lsa, quritilish muddati shuncha qisqa, hamda mahsulotning qizdirilish darajasi shuncha past bo'ladi.

Radiatsion quritish usuli. Bu usulda issiqlik urug'larga issiqlik yoki radiatsiya nurlari sifatida uzatiladi. Radiatsion usulda moyli urug'lar quyosh nurlari va infra qizil nurlar bilan quritiladi.

Yuqori chastotali tok ta'sirida quritish usuli. Oxirgi ikkala usuldagi quritishni asosan ilmiy tadqiqotlarda ishlatiladi.

Vakuum-quritish usuli. Yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari vakuum sharoitda quritish, hamda kombinatsion usullar ham mavjud. Quritilayotgan urug'lar tepasidagi havo bosimini su'iy holda kamaytirish, hisobiga urug'lardagi namlik past haroratda bug'lanadi. Bu usul vakuum - quritish deyiladi.

Konvektiv quritish usuli. Bu usulda moyli urug'lar asosan, qizdirilgan havo yoki tabiiy gaz yonishidan hosil bo'lgan issiqlik yordamida quritiladi. Qaysi turdagi isitilgan gaz bo'lishidan qat'iy nazar ularni quritish agentlari deb nomlanadi. Konvektiv quritish usulida quritish agenti qizdirilgan havo, havo va yonuvchi gaz aralashmasi, tashqi havo (aktiv ventillyasiya) hisoblanadi. Konvektiv quritish usuli sanoatda keng tarqalgan va eng qulay usul hisoblanadi.

Konduktiv quritish usuli. Bunda moyli urug'larni quritish asosan qizdirilgan yuzalar bilan bevosita to'qnashuv natijasida issiqlik almashinuv yo'li bilan olib boriladi, ya'ni qurituvchi agent o'z issiqligini qurituvchi uskuna devorlariga beradi va devor bilan kontaktda bo'lgan moyli urug'lar undan issiqlik olish hisobiga quriydi. Bu turdagi quritish usuli yog'-moy sanoatida kam tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Convective-radiation spray dryer for liquid and pasty food materials [Text] / I. Yu. Aleksanyan, Yu. A. Maksimenko, Yu. S. Feklunova, N. E. Pshenichnaya // International scientific and technical conference dedicated to 105 anniversary of the birth of A. N. Planovsky (MNTK PLANOVSKY - 2016) "Improving the efficiency of processes and apparatus in the chemical and related industries." - Moscow, 2016. - T. 2. - S. 77-79.
2. Altukhov I.V. Pulse infrared emitters for drying vegetable raw materials / I.V. Altukhov, N.V. Tsuglenok // Topical issues of agrarian science. - Krasnoyarsk, 2018 - No. 27 - S. 5-12.

ISSIQXONALAR UCHUN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASH MASHINASI

Sadullaev Shuhrat Narzullaevich

Annotastiya. Maqolada ish unumi va sifati yuqori, energiya-resurstejamkor bo'lgan mashinalarni ishlab chiqish muammolari yoritilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi bo'yicha texnik ishlanma berilgan.

Kalit so'zlar: Energiya-resurstejamkor, ishlov berish, ekish, rama, osish qurilmasi, yumshatkichlar, tekislagich, egat hosil qilgich qanotcha.

Jahonda yerlarga ekishdan oldin ishlov beradigan ish unumi va sifati yuqori, energiya-resurstejamkor bo'lgan mashinalarni ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinni egallaydi. Hozirda dunyo bo'yicha oziq-ovqat tanqisligi sezilayotgan bir davrda, uni etishtirishga talab ortmoqda. Bugungi kunda dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini ekish uchun har yili 1,8 mlrd. Gektardan ortiq maydonga ishlov berilishini hisobga olsak, yerlarga ekishdan oldin ishlov berishda qo'llaniladigan mashinalar avvalo energiyaresurstejamkor, ish sifati va unumi yuqori bo'lishi lozim. Shu jihatdan yerlarga ekishdan oldin ishlov berishda qo'llaniladigan texnika vositalarini ilmiy asosda takomillashtirish muhim masala hisoblanadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida, jumladan, «qishloq xo'jaligini modernizastiya qilish va jadal rivojlantirish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, meliorastiya va irrigastiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ish unumi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikalaridan keng foydalanish» vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda, jumladan mavjud chizel-kultivatorlarning material va energiyahajmdorligini kamaytirish, ularni texnik va texnologik jihatdan modernizastiyalash hisobiga resurs-tejamkorlikni ta'minlash, ish sifati va unumini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda Buxoro muxandislik texnologiya instituti "Transport vositalari muxandisligi" kafedrasida a'zolari tomonidan "Energiyani tejoychi texnologiya va tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarni asoslashda mexanika muammolari" Ilmiy yo'nalishi bo'yicha respublikamiz sharoitida issiqxonalarda sabzavot ekish uchun tayyorlashda qo'llaniladigan kombinastiyalashgan mashina ishlab chiqilgan. U rama, unga o'rnatilgan osish qurilmasi, hamda ish organlaridan iborat bo'lib, ular bajarilgan jarayondan kelib chiqqan holda ramada ketma-ket joylashtirilgan yumshatkichlar, tekislagich hamda egat hosil qilgichdan tashkil topgan. Ish jarayonida yumshatkichlar tuproqni 14-24 cm chuqurlikka yumshatadi, egat hosil qilgichga o'rnatilgan qanotchalar sabzavot ekish uchun pushta hosil qiladi, zichlaydi hamda nam saqlanishini ta'minlaydigan mayin tuproq qatlamini hosil qilib ketadi, ya'ni daladan bir o'tishdayoq tuproqni ekishga tayyor holga keltiradi. Bu mehnat, energiya va yonilg'i-moylash materiallari sarfini sezilarli darajada kamayishi hamda tuproqning ortiqcha zichlanmasligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Gaffarov X.R i dr. Probleva snijeniya energoyomkosti mashin i orudiy dlya glubokoy obrabotki pochvy. "Molodoy uchenny" №15(149). Aprel 2017 g.
2. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/635/596>

САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИ СОВУҚ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ ЖАРАЁНИНИ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА АВТОМАТЛАШТИРИШ

Д. Ж. Аслонова, магистр

Ҳозирги кунда республикамизнинг озиқ-овқат ва кимё саноатида технологик жараёнларни бошқариш, шунингдек бутун корxonани замонавий техник воситалар асосида бошқаришни ва назорат қилишни ташкил этишда ахборот-коммуникация тизимларини жорий этишга эътибор ошди. Автоматлаштириш асосида комплекс воситаларни қўллаш асосида ишлаб чиқариш жараёнларини инсон аралашувисиз ва шу билан бирга унинг назорати орқали ташкил этиш йўлга қўйилди. Чунки, ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш маҳсулот ишлаб чиқаришни оширишга, унинг таннархини камайтиришга ва сифатини оширишга, хизматчи персонал сонини камайтиришга, техник жиҳозларнинг ишончилигини оширишга, ресурсларни тежашга, шунингдек иш шартларини яхшилашга ҳамда техника хавфсизлиги қондаларига риоя қилишга хизмат қилади.

Автоматлаштириш схемаси икки хил усулда бажарилиш мумкин: тўртбурчак шаклида шитларни ва бошқариш пультларини шартли белгилаш (одатда чизманинг пастки қисмида) ва уларда автоматлаштириш воситалари тасвирланади. Иккинчи усулда технологик схемаларда автоматлаштириш воситаларини тасвирлаш танланган ва қабул қиладиган қурилмалар олдида тўртбурчакни қурмасдан шартли равишда шитни, пульни, назорат ва бошқарув пунктларини тасвирлаш орқали бажарилади.

Биринчи усулда схемаларни тайёрлашда функционал блок ёки гуруҳга кирадиган барча приборлар ва автоматлаштириш воситалари, уларнинг жойлашиш ўрнида кўрсатилади.

Схемани иккинчи усулда қуришда, у объектни автоматлаштириш бўйича қабул қилинган қарорлар хусусида умумий тасовурларни берсада, ҳужжатлар ҳажмининг қисқаришига олиб келади. Автоматлаштириш схемасини бундай ўқиш, қийинчилик туғдиради, объектни назорат қилиш ва бошқариш пунктларини ташкиллаштиришни акслантирмайди.

Ҳозирги кунда автоматлаштириш даражаси бўйича компрессорли совутгич қурилмалари озиқ-овқат саноатида бошқа соҳаларга кўра олдинги ўринларда туради. Бундай технологияларда совитиш қурилмалари уларда кечадиган узлуксиз жараёнлар билан характерланади. Бунда совуқ ишлаб чиқиш ихтиёрий вақтда эҳтиёжга (юкламага) қараб мос келиши талаб этилади.

Бизнинг илмий тадқиқотларимиз оралиқ совуқ элткичли ва бир босқичли компрессорли қурилмани дастурловчи контроллерлар асосида бошқариш орқали бундай жараённи автоматлаштириш имкониятларини тадқиқот қилишдан иборатдир.

Бундай қурилма республикамизнинг кимё ва озиқ-овқат саноати корxonаларида анчадан бери қўлланилиб келинмоқда. Лекин, ҳозирги кунга қадар ушбу совитиш тизимини замонавий техник воситалар, жумладан контроллерлар асосида бошқариш масалалари атрофлича таҳлил этилмаган. Биз масаланинг биринчи босқичида совитиш қурилмасининг назорат ўлчов асбобларидан ва датчиклардан технологик параметрларнинг аналог сигналларини дискрет сигналларга қандай қилиб ўзгартириш масалаларини ўрганиб чиқдик. Объектни автоматлаштириш лойиҳасини ишлаб чиқишда биз АТТ2200 русумли температурани ўлчаш учун хизмат қиладиган интеллектуал датчикни танладик. Ушбу датчик юқори даражали метрологик характеристикаларга эга. Жараённи бошқаришга SIMATICS7-400 микроконтроллери асос қилиб олинди. Ушбу контроллер WinCC визуализациялаш тизимига эга бўлиб, ишончли ишлаши ва катта имкониятлари билан ажралиб туради.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, компрессорли совутгич қурилмаларини замонавий контроллерлар асосида бошқариш совуқ параметрни бир маромда сақлаб туришга, меҳнат унумдорлигини оширишга ва ишчи персоналнинг иш характерини ўзгартиришга олиб келади.

ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА СОВИТИШ ҚУРИЛМАЛАРИНИ ДАСТУРЛОВЧИ КОНТРОЛЛЕРЛАР АСОСИДА БОШҚАРИШ ИМКОНИАТЛАРИ

Аслонова Д. Ж., магистр

Ҳозирги кунда микропроцессор техникаси инсон фаолиятининг турли жавҳаларида жорий этилмоқда. Дарҳақиқат, замонавий ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштиришни микропроцессор воситаларисиз тасоввур қилиб бўлмайди.

Биз олиб борилган илмий тадқиқотларимизда озиқ-овқат саноати корхоналарида совитиш қурилмаларини дастурловчи контроллерлар асосида бошқариш имкониятлари ўрганиб чиқдик. Объект сифатида ҳозирги кунга қадар Республикаимизнинг озиқ-овқат ва кимё саноатида қўлланилиб келинаётган совитиш тизимининг компрессори ва уни бошқариш учун Siemens компаниясининг SIMATICS7-400 микроконтроллери танланди. Ушбу контроллер WinCC визуализациялаш тизимига эга бўлиб, ишончли ишлаши ва катта имкониятлари билан ажралиб туради.

Контроллер учун бошқарувчи дастур ST (Structured Text) – структурлаштирилган матн тилида тузилди. Бошқариш объектдан технологик параметрлар датчик ёрдамида қабул қилинади. Объектни автоматлаштириш лойиҳасини ишлаб чиқишда биз АТТ2200 русумли температура интеллектуал датчикини танладик. Ушбу датчик юқори даражали метрологик характеристикаларга эга. Мазкур датчик компьютер ёрдамида HART коммутатор асосида асбобнинг асосий иш параметрларини сошлаш имкониятига эга.

Автоматлаштириш жараёнида бошқарув объектга ўрнатилган яна бир қурилма ижрочи механизм (ИМ) бўлиб ҳисобланади. Бундай қурилма сифатида двигателли электр ижрочи механизми танланди. Ушбу механизм созлагичли органнинг ҳаракатга келтириш принципига асосланади (созлагичли орган сифатида винтел, клапан, шибер, силжитгич, кран ва ҳ.к. катнашиши мумкин).

Бошқариш стратегиясини шакллантириш учун контроллер бошқарув объектнинг ҳолати хусусидаги ахборотга эга бўлиши учун кириш йўлига эга. Унинг чиқиш йўли бошқарув таъсирини (бошқарувчи буйруқлар) амалга ошириш учун хизмат қилади.

Маълумотлар бошқарув объектида жойлашган датчиклар ёрдамида объект билан алоқа қурилмаси ёрдамида (ОАҚ) контроллернинг кириш йўлига узатилади ва унинг асосида дастур бошқарув таъсирини ишлаб чиқади. Датчиклардан келадиган маълумотлар ОАҚ –нинг кириш каналлари орқали контроллернинг маълумотлар хотирасига келиб тушади. Ушбу маълумотлар дастур хотирасида жойлашган бошқарув дастур томонидан қайта ишланади. Белгиланган алгоритм асосида қайта ишланган маълумотлар асосида чиқиш сигналари шаклланади.

Бошқариш стратегиясини шакллантириш жараёнида контроллер бошқарув объектнинг ҳолати хусусидаги ахборотга эга бўлиши учун кириш у йўлига эга. Унинг чиқиш йўли бошқарув таъсирини (бошқарувчи буйруқлар) амалга ошириш учун хизмат қилади. Маълумотлар бошқарув объектида жойлашган датчиклар ёрдамида объект билан алоқа қурилмаси ёрдамида (ОАҚ) контроллернинг кириш йўлига узатилади ва унинг асосида дастур бошқарув таъсирини ишлаб чиқади. Шунини таъкидлаш жоизки, интеллектуал датчик бошқарув объектидаги технологик жараёнларнинг аналог сигналларини дискрет сигналларга (иккилик кодларга) ўзгартириш қобилиятига эга. Шунинг учун ОАҚ ушбу маълумотларни вақтинчалик ўзида сақлаш учун хизмат қилади ва у интеграл хотира микросхемаларидан ташкил топган.

Кириш маълумотларининг қийматлари маълумотлар хотирасидан бошқариш тизимининг юқори даражасига интерфейс қурилмаси орқали узатилади. Интерфейс қурилмаси орқали персонал томонидан ишчи станциялар орқали узатилган бошқариш буйруқларини қабул қилиш имкониятлари ҳам мавжуд. Умуман олганда, бошқариш стратегияси контроллерга олдиндан ёзилган бошқарув дастури асосида шаклланади.

ЗАГОТОВКА СЕМЯН ТОМАТОВ ИЗ СОБСТВЕННЫХ ПЛОДОВ

Х. О. Рахмонкулова, магистр

Быстрый вариант заготовки семян томатов из собственных плодов удобно применять в тех случаях, когда нет возможности найти нужное количество времени на проведение полноценной процедуры подготовки.

При этом необходимо будет выполнить такие шаги:

- Плоды необходимо тщательно помыть. Затем их разрезают. Выпускать семена можно обычным образом: путем надавливания на стороны помидора или с помощью ложечки.

-Полученные семена вместе с жидким субстратом насыпают на матерчатую или бумажную салфетку и слегка растирают, чтобы освободить от мусора и при этом их не повредить.

-Салфетку вместе с посевным материалом оставляют сохнуть на протяжении семи дней.

-Семена надо аккуратно отделить от салфетки. Затем их складывают в бумажные пакетики или матерчатые мешочки для хранения.

Всхожесть полученного посевного материала будет ниже, чем при использовании основного способа и в значительной степени будет зависеть от особенностей сорта томатов.

Когда из помидоров извлекли семена вместе с жидкостью, их кладут на салфетки и оставляют сохнуть в течение семи дней. В таком виде их хранят в бумажных пакетиках.

Иногда при сборе урожая выбирают плоды, семена из которых хотят использовать на будущий год. В этом случае помидор зарывают в землю на глубину 2-3 см и присыпают мульчей. Его нужно оставить здесь до весны.

Если нужно отобрать и заготовить семена, неопытные огородники могут допускать следующие ошибки:

-При получении посевного материала особую важность имеет правильный выбор куста. Если плоды на нем имеют нетипичный для этого сорта вид, то это скорее всего объясняется воздействием случайных факторов. Полученный посевной материал уже не даст в точности похожий урожай. Нужно отбирать такое растение, где томаты имеют характерные черты.

-Куст, в котором все помидоры имеют различную величину, не подходит для заготовки посевного материала. Нельзя предсказать, какие томаты уродятся впоследствии.

-Готовый материал не рекомендуется хранить дольше пятилетнего срока. После его истечения маловероятно, что сохранится всхожесть.

-Если во время хранения в пакетик попала влага, то это может привести к образованию плесени. В этом случае посевной материал теряет всхожесть и его следует выбросить.

-Не рекомендуется заготавливать семена тех сортов, которые по своим характеристикам не подходят для местного климата.

-Если аккуратно провести процедуру самостоятельной заготовки в соответствии с правилами, то это даст возможность заготовить качественный посевной материал.

Чтобы снизить риск заражения, проводят обработку Цирконом и Иммуноцитифитом. Аналогичную процедуру можно провести, используя неразбавленный сок алоэ. Для проведения полноценной обработки достаточно продержать в нем посевной материал на протяжении суток.

После окончания описанной здесь пошаговой процедуры, просушивание семян не является обязательным. Подготовленный материал готов для высадки в грунт. Самостоятельная заготовка посевного материала позволяет фермеру выбрать нужные сорта и обеспечить себя семенами для выращивания томатов. Зная, как правильно собрать семена томатов в домашних условиях, можно получить зерна с хорошей всхожестью.


Литература

1. Мурашев С.В. содержания воды и сухих веществ в пищевых продуктах / С.В. Мурашев, А.Л. Ишевский, Н.А. Уваров. – СПбГУНиПТ, 2007. –С.6-24

ТРАНСПОРТ ВОСИТАСИ ҲАРАКАТИ МЕХАНИК ЭНЕРГИЯСИНИ ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯСИГА АЙЛАНТИРИШНИНГ САМАРАДОР УСУЛЛАРИ

Тоиров З., Муродов К.Ж.

Бухоро муҳандислик-технология институти “Энергетика” кафедраси олимлари томонидан “Яшил энергетика” соҳасидаги қарорларни амалда ижросини таъминлаш мақсадида “Транспорт воситаси ҳаракати механик энергиясини электр энергиясига айлантириш қурилмаси ” ихтиро қилинди ва Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлигидан FAP 01841 (*Ўзбекистон Республикаси фойдали моделлар давлат реестрида 05.02.2022 йил Тошкент шаҳрида рўйхатдан ўтказилган*) фойдали моделга патент олинди.



Ҳозирги вақтда экологик тоза электр энергияни ишлаб чиқаришда катта аҳамият берилмоқда. Ушбу илмий тадқиқот ишининг долзарблиги ва зарурати шундаки шундаки, электр энергиясини пайдо қилиш учун ёқилғи, уни ташиш учун транспорт харажатлари сарф қилинмайди, балки фойдаланилмасдан келинаётган механик энергия, махсус технология қурилмаси орқали электр энергиясига айлантирилади ва ундан самарали фойдаланиш имконияти яратилади.

Қурилма ташқи кўриниши расми

Гидро электростанциялар қиммат ва мураккаб тузилмаларни, масалан дарёларни тўсиб қўядиган тўғонлар, шунингдек атроф-муҳитга салбий таъсир кўрсатадиган қўллар ёки сув омборларини талаб қилади.

Шу сабабли анъанавий энергия ишлаб чиқариш тизимлари билан боғлиқ бўлган юқори харажатлар ва экологик муаммоларни бартараф этадиган ёки минималлаштирадиган энергия ишлаб чиқариш тизимларини ривожлантириш бўйича илмий тадқиқотларни амалга ошириш орқали электр энергия олиш катта аҳамиятга эга.

Шунингдек, автомобил транспортлар ҳаракати ривожланиб шаҳар ва қишлоқ автомобил йўлларида қатнов оқими кескин кўпайиб бормоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл ҳаракати қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 2019 йил 9 апрелдаги 292-сон қарорига асосан Йўлнинг сунъий нотекислик ўрнатилган қисмига яқинлашаётганлиги тўғрисида огоҳлантирувчи 1.31 белги, Транспорт воситасининг ҳаракатланиш тезлигини мажбурий тарзда камайтириш учун қўлланилмоқда.



Транспорт воситалари қатновчи асосий йўлларда дастлаб, мазкур белги асосида сунъий нотекисликлар қўлланилган бўлса, айти кунларда транспорт воситалари қатновчи ички йўлларда ҳам сунъий нотекисликлар ўрнатилмоқда (қурилмоқда). Сунъий нотекислигининг баландлиги 7-10 см.ни ташкил этади.

Олиб борилган илмий тадқиқотлар давомида транспорт воситаси ҳаракати механик энергиясидан фойдаланиб электр энергия ҳосил қилувчи қурилма яратилди. Тақлиф этилаётган қурилмани қўллаш натижасида тармоқда ишлатилиб келинаётган электр энергия тежалди ҳамда тежалган электр энергияни халқ хўжалигининг бошқа зарур жабҳаларида ишлатилишида замин яратилади.

Қурилмани нафақат транспорт воситалари қатновчи йўлнинг сунъий нотекислик қисмида, балки йўл юзаси остида бир ёки бир нечта ҳимоя қатламлари билан қопланган босим плитасини тайёрлаб, ушбу плита остида қурилмани ўрнатиш орқали электр энергия олишга имконият мавжуд. Тақлиф этилаётган қурилма-мосламаси нисбатан арзон ва ўрнатишга қулай ҳисобланади.

ШАҲАР СУВ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИНИ КОНТРОЛЛЕР АСОСИДА БОШҚАРИШ

Эргашева М.К. магистр

Сув таъминоти- бу комплекс иншоотлар бўлиб, улар истеъмолчиларни талаб этилган миқдорда ва сифат даражасида сув билан таъминлан учун хизмат қилади.

Сув таъминоти тизимининг таркиби ва схемасига маҳаллий табиий шароитлар, сув таъминоти маънбаи ва сувни истеъмол қилиш характери катта таъсир кўрсатади. Тўғри оқувчи тизим хўжалик-ичимлик ва ёнғинга қарши сув таъминоти тизимларида қўлланилади. Айрим ҳолларда ишлаб чиқариш – техник сув таъминоти тизимида ҳам қўлланилиши мумкин.

Сув таъминоти тизимини аавтоматлаштиришнинг техник-дастурий таъминотини танлаш ва уларни асослаш масалаларини кўриб чиқамиз.

Сув таъминоти технологик жараёнининг автоматлаштирилган тизимини ишлаб чиқишда операторнинг автоматлаштирилган иш ўрнини ташкил этиш керак. Бундай автоматлаштирилган иш ўринлари ўзининг дастурий таъминотига ва унинг микроконтроллер билан алоқадорлигига эга бўлиши керак. Шунингдек, жараённинг ҳолати хусусида хабар берувчи керакли датчикларни аниқлаш, объектга таъсир этадиган ижрочи механизмларни танлаш зарур.

Резервуардаги зарурий сув ҳажмини назорат қилиш сатҳ датчиклари орқали амалга оширилиши керак. Ушбу мақсадлар учун бизга контактсиз сатҳ сигнализаторлари (КСС) керак бўлади. Бунинг учун рН кўрсаткичини назорат қилиш учун РН-018 (ЭкоЮнит) назорат ўлчов асбобидан фойдаланамиз.

Тизимни бошқариш ва назорат қилиш учун ОВЕН ДМК 110-30 контроллери танланди (1-расм).



1-расм. ОВЕН ДМК 110-39 микроконтроллери

ОВЕН ДМК 110-30 дастурланувчи мантикий контроллер ГОСТ Р 51840-2001 (IEC 61131-2) стандартига мос равишда ишлаб чиқилган ва у юқори аппарат ишончилигини таъминлайди. У Atmel фирмасининг юқори тезликдаги RISC процессори, ARM9 архитектураси асосида қурилган, частотаси 180МГц., тезкор хотиранинг ҳажми - 8МБ бўлиб, ундаги энергияга боғлиқ бўлмаган хотира ўзгарувчиларнинг қийматларини 16КБ гача сақлайди. Сув таъминоти тизимини автоматлаштиришда симли ҳамда симсиз диспетчерли бошқарув тизимларини жорий этишда ушбу контроллердан фойдаланиш тавсия этилади. Контроллер бирламчи маълумотларни датчиклардан қабул қилиб олади. Унинг доимий хотирасида ёзиб қўйилган бошқарув дастури маълумотларни қабул қилиб тегишли бошқарув буйруғини шакллантиради.


YI.- SHO‘BA
Aniq fanlarning nazariy va amaliy
muammolari

POG'ONALI BRUSNI CHO'ZILISH VA SIQILISHGA HISOBLASH

Bibutov N.S., Qoryog'diev B 102-21 KT guruhining talabasi

Markaziy cho'zilish va siqilishda sterjenning ko'ndalang kesimida faqat bir xil ichki kuch – faktori -bo'ylama kuch N hosil bo'ladi.

Cho'zilish va siqilishda ichki bo'ylama kuch – brusning ko'ndalang kesimidagi barcha normal kuchlarning teng ta'sir etuvchisi. *Bo'ylama kuch– brusning kesilgan ko'ndalang kesimidan bir tomonda olib qolingani tashqi kuchlarni ushbu kesimning bo'ylama o'qiga proeksiyalarining algebraik yig'indisiga teng.* Amaliyotda uchraydigan konstruktsiya qismlarining ko'pchiligi ko'ndalang kesimda hosil bo'ladigan ichki cho'zuvchi yoki siquvchi bo'ylama kuchlarini kesish usulidan foydalanib, sistemaning ajratilgan bo'lagini muvozanat shartidan topiladi.



Ushbu rasmlarda bruslarning cho'zilish yoki siqilishiga oid eng oddiy misollar keltirilgan. Bruslarning ixtiyoriy kesimidagi ichki bo'ylama N_x kuchlarini kesish usuli bilan topilgan

Ulardan birinchisi brusni cho'zadi va kesim yuzasidan brusni tashlab yuborilgan tomoniga yo'nalgan. Bunday kuchni musbat ishorali deb qabul qilamiz.

Ikkinchi N_x kuch kesim yuza tomon yo'nalgan va u brusni olib folingan qismini siqadi. Bunday kuchni manfiy ishorali deb qabul qilamiz. Cho'zuvchi va siquvchi bo'ylama kuchlarning bunday yo'nalishi va ishorasini qoida sifatida qabul qilamiz.

Agar brus o'qi bo'ylab, unga bir qancha kuchlar qo'yilgan bo'lsa, uning ixtiyoriy ko'ndalang kesimidagi ichki bo'ylama kuchlarni topish uchun kesish usulidan foydalanamiz.

Brusning ixtiyoriy ko'ndalang kesimidagi bo'ylama kuch N_x brusning qoldirilgan qismiga ta'sir qiluvchi barcha kuchlarning brus o'qiga tushirilgan proeksiyalarining algebraik

yig'indisiga teng.

$$N_x = \sum_{\kappa=1}^n F_{KX}$$

buerda $\sum_{\kappa=1}^n F_{KX}$ - barcha kuchlarning brus o'qiga tushirilgan proeksiyalarining algebraik yig'indisi

n - tashqi kuchlar soni.


Kuchning o'qdagi proeksiyasi. *Ma'lum yo'nalish berilgan to'g'ri chiziq o'q deb ataladi.*

Vektorning o'qdagi proeksiyasi skalyar kattalik bo'lib, u o'qning vektor boshidan va uchidan o'qqa tushirilgan perpendikulyar kesishishidan hosil bo'lgan kesmasi bilan aniqlanadi.

Kuchning o'qdagi proeksiyasi kuch vektorining boshi va oxiridan o'qqa tushirilgan ikkita perpendikulyar orasidagi o'q kesmasi bilan topiladi:

$$F_x = F \cos \alpha;$$

$$F_y = F \sin \alpha$$




Agar, $\alpha < 90^0$ bulsa kuchning o'qdagi proeksiyasi musbat, $\alpha > 90^0$ bulsa manfiy ishorali

EGUVCHI MOMENT, KO'NDALANG KUCH VA YOYILGAN KUCH INTENSIVLIGI ORASIDAGI DIFFERENSIAL BOG'LANISHLAR

Bibutov N.S., Abdullaev A. 102-21 KT guruhining talabasi

Taqsimlangan kuch intensivligi ta'sirida bo'lgan balkadan ajratilgan elementar uzunlikdagi bo'lakning muvozanat holatini tekshiramiz (1-rasm).



1 - rasm

Taqsimlangan kuch intensivligi q ta'siridagi elementar dx uzunlikdagi ajratilgan element balkani tashlab yuborilgan qismlari ta'sirini almashti-ruvchi ko'ndalang kuchlar Q va

$Q_1 = Q + dQ$, momentlar M_x va

$M_1 = M_x + dM_x$ ta'sirida bo'ladi (11-

rasm) Ajratilgan elementning muvozanat sharti quyidagicha yoziladi:

$$\sum y = Q - q dx - (Q + dQ) = 0 \quad (1)$$

(1) tenglamadan $-q dx - dQ = 0$ tenglikni hosil qilamiz.

Bu yerdan $q = -\frac{dQ}{dx} \quad (2)$

Demak, balkaning ixtiyoriy kesimidagi ko'ndalang kuchning absissa bo'ylab birinchi tartibli hosilasi shu kesimdagi taqsimlangan kuch intensivligi q - ga teng ekan. Agar q - kuch yuqoriga yo'nalsa (2) tenglamaning ishorasi musbat bo'ladi.

Ajratilgan elementning ikkinchi muvozanat shartini yozamiz:

$$M_x + Q dx - q dx \frac{dx}{2} - (M_x + dM_x) = 0 \quad (3)$$

(3) tenglamadan $Q dx - dM_x = 0$ va $Q = \frac{dM_x}{dx} \quad (4)$

hosil bo'ladi, ya'ni balkaning ixtiyoriy kesimidagi ko'ndalang kuch, shu kesimdagi eguvchi momentning absissa bo'yicha birinchi tartibli hosilasiga teng. (3) va (4) tenglamalar asosida

$$\frac{d^2 M_x}{dx^2} = \frac{dQ}{dx} = -q \quad (5)$$

tenglik hosil bo'ladi, ya'ni eguvchi momentning absissa bo'ylab ikkinchi tartibli hosilasi shu kesimdagi taqsimlangan kuch intensivligi q - ga teng. Yuqoridagi differensial bog'lanishlardan M va Q epyuralarini qurishda foydalanish mumkin. Masalan: balkani biror kesimida $Q = const$ bo'lsa, shu kesimida (2) differensial bog'lanishga asosan, $q = 0$, ya'ni taqsimlangan kuch intensivligining ta'siri nolga teng yoki q kuch ta'sir qilmas ekan. Taqsimlangan kuch intensivligi ta'sir qilgan oraliqda ko'ndalang kuch to'g'ri chiziqli qonuniyat bilan o'zgaradi. Q ning epyurasi absissa o'qini kesib o'tadi, ya'ni absissaga og'ishgan burchak bilan joylashadi

AVTOMOBIL G'ILDIRAGI G'ILDIRASH RADIUSLARI VA BOSH UZATMANING UZATISH SONINI TEKSHIRISH

Saidov Muxtor

**G'ildirash radiuslari, foydali ish koefitsienti va avtomobilni tezligini aniqlash.
Yetakchi g'ildirakning dumalash radiusi:**

$$r_F = \left[\frac{d}{2} + b \cdot (1 - \lambda) \right], \text{ m}$$

bu yerda: d - diska kiradigan shina aylanasining diametri, m,
 b - shina eni, m.

λ - og'irlik kuchi ta'sirida shinaning deformatsiyalanish (cho'kish) koefitsienti:

- yengil avtomobillari uchun $\lambda = 0,125 \div 0,15$.

- yuk avtomobillari uchun $\lambda = 0,09 \div 0,11$ qabul qilinadi.

$\eta_{\kappa,y}$ -**kuch uzatmasining F.I.K (1-jadval):**

$$\eta_{\kappa,y} = \eta_M \cdot \eta_{y,\kappa} \cdot \eta_{\kappa,p}^c \cdot \eta_{\delta,y}$$

Kuch uzatmasi mexanizmlarining foydali ish koefitsientlari 1.1-jadvaldan olinadi.

1.1-jadval

Mexanizmlar	Foydali ish koefitsientlari η_i
Friktsionli mufta;	1,0
Gidravlik mufta;	0,97...0,98
Uzatmalar qutisi;	
a) to'g'ri tishli shesternyali	0,94...0,97
b) qiyshiq tishli shesternyali	0,95...0,98
Kardanli uzatma	
Kardan valni og'ish burchagi (ramaga nisbatan)	
0-7° bo'lganda (engil avtomobil)	0,99
7°-20° bo'lganda (yuk avtomobil va avtobus)	0,98
Bosh uzatma:	
Yakka bosqichli, gipoid tishli konus shesternyali uzatma.	0,94
Yakka bosqichli gipoid tishli konus shesternyali uzatma bir bosqichli tsilindr shesternyali uzatma.	0,97
Ikki bosqichli (qo'shaloq) konus-tsilindr shesternyali uzatma.	0,92
Bosh uzatmaning tsilindrli shesternya jufti	0,97...0,98
Konus shesternyali jufti	0,95...0,97

a, b -juft shesternyalar soni, $a=1, v=0, c$ -kardan krestovinalari soni, $c=2$.

Bosh uzatmaning uzatish soni.

Bosh uzatmaning uzatish sonini quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$U_{\delta,y} = \frac{\pi \cdot n_N \cdot r_F}{30 \cdot V_{a \max}}$$

bu yerda: n_N - tirsakli valni maksimal aylanishlar soni, ayl/min;

$V_{a \max}$ - avtomobilni maksimal yurish tezligi, m/s.

Adabiyotlar.

1. A.Muxitdinov va boshqalar. Avtomobillar. Konstruktsiyasi asoslari. "Istiqlol nuri" nashriyoti. T.:2015y.
2. A.Muxitdinov, B.Sattivaldiev, SH.Xakimov "Transport vositalarining tuzilishi" (DSIGN OF VEHICLES) "Ta'lim nashriyoti" TOSHKENT-2014 y 158 b.
3. Fayzullayev E.Z. Transport vositalari tuzilishi va nazariyasi.

CHOPIQ TRAKTORLAR G'ILDIRAKLARI

Samandarov Ali Xayrullayevich

Annotatsiya. Bu maqolada asosan traktor g'ildiraklari xususida va ularning ish jarayonida afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

Asosiy atamalar: CHopiq traktori, qator oralig'i, g'ildirak, koleya, rezina.

Annotation. This article mainly talks about tractor wheels and their advantages in the work process.

Basic terms: Lawn tractor, row spacing, wheel, track, rubber.

1892 yilda amerikalik Djon Frelix birinchi benzinli traktorni ixtiro qildi. Bu traktorlarda tuproq bilan yaxshi ilashishni ta'minlaydigan po'lat g'ildiraklardan foydalandi. To'rt g'ildirakli chopiq traktorlari ishlov berilgan ekinlarni parvarish qilishda va boshqa qishloq xo'jaligi ishlarini bajarishda qo'llaniladi. SHu maqsadda ba'zi to'rt g'ildirakli chopiq traktorlarida umumiy maqsadlar uchun keng shinalar va qator oralarida ishlash uchun tor shinalar bilan almashtiriladigan g'ildiraklar bilan ta'minlanadi. O'simliklarga zarar etkazmaslik uchun traktorlar koleya oraliq kengligi qatorlarning kengligiga qarab sozlanadi. Traktor g'ildiraklari turli o'lcham va shakllarda keladigan metall materialdan tayyorlanadi. U yukni o'qdan erga o'tkazadi, shuningdek er sirti bilan yaxshi ilashishni ta'minlaydi. Traktor g'ildiraklari sirpanishning oldini oladigan va er bilan yaxshi ilashishni ta'minlaydigan ko'plab funksiyalarga ega. Traktor g'ildiraklarining ba'zi asosiy afzalliklari va xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- g'ildiraklar uzoq ishlash muddatga, ajoyib barqarorlik va ishonchli yer bilan ilashish funksiyasiga ega bo'lishi lozim.
- g'ildiraklarning aksariyati rezina materialidan tayyorlanadi.
- shinalar mexanik yedirilishga chidamli bo'lishi kerak.
- g'ildiraklarning yaxshi ishlashi uchun diametri va kengligi maqbul belgilanadi.
- g'ildiraklar kamida sakkiz qavatli konstruksiyaga ega etib tayyorlanadi.

Traktorlar juda ko'p ishlarni bajaradilar. Qishloq xo'jaligida ishlaydigan traktorlar og'ir yuklarni osongina itarishi yoki tortishi kerak, shu maqsadda g'ildiraklar mustahkam va ishonchli bo'lishi shart. SHinalar yo'lda harakatlangan vaqtida ham muhim rol o'ynaydi. Old kichik va orqa katta shinalar traktorning noto'g'ri yuklanishni oldini oladi. Ko'pincha traktorlar loyli va notekis maydonlarda ishlaydi. Kattaroq shinalar yer yuzasida sirpanishni oldini oladi. Traktorga o'rnatilgan kattaroq shinalar yerga tishlashi mumkin bo'lgan juda yaxshi protektorlarga ega. Og'irlikni teng ravishda taqsimlaydigan kattaroq sirt maydoni, tormozning ancha samarali ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. AUTOMOBILE STRUCTURE SCIENCE - THE FIRST STEP IN THE STUDY OF PROFESSIONAL SECRETS Samandarov A. X. The Republic of Uzbekistan. Bukhara City. a.samandarov@inbox.ru
2. High clearance tractor, Agrotechnical clearance of the tractor.

PAST CHASTOTALI MAGNIT MAYDONNING BIOSISTEMALARGA TA'SIRI

Buronov Sunatullo Aslonovich, Obidov Zafarjon Zoxidjon o'g'li, 800-20 TVM guruh talabasi

Hozirgi vaqtda o'simlik va hayvonot xom ashyosini qayta ishlash uchun Elektromagnit maydoni (EMM) energiyasi ko'plab oziq-ovqat sanoatida qo'llaniladi. Shunday qilib, masalan, pivoni qayta ishlash uchun EMMdan foydalanish uning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirda 750 dal/soat quvvatga ega va magnit maydon kuchi 235 kA/m bo'lgan elektromagnit apparat loyihalashtirildi va ishlab chiqarildi. zavodning sanoat sinovlari natijalari shuni ko'rsatdiki, pivodagi mikroorganizmlar soni kamayadi, buning natijasida uning biologik qarshiligi 4-6 kunga oshadi va kolloid qarshilik 8-10 kun davomida. EMM liyofil kolloid zarralarini turli zaryadlar bilan o'zaro birlashtirganda kolloid muvozanatning buzilishiga hissa qo'shganligi sababli, pivoning filtrlash sifati yaxshilanadi. MPni qayta ishlashning pivoning ko'pikli xususiyatlariga ijobiy ta'siri ham qayd etildi. Magnitlangan pivodan namuna olgandan keyingi ikkinchi kuni 165-180 kA/m kuchlanish yuqori ko'pik magnitlanmagan pivoga nisbatan 30-80% ga, 125 kA/m kuchlanish esa 5,5% ga kam edi. 165-225 kA/m magnit maydon kuchlanishida ko'pik qarshiligi 6,2% ga, 235 kA/m kuchlanishda esa 75% ga oshdi.

Hozirgacha past chastotali magnit maydonning biologik ob'ektlarga ta'sir qilishining ishonchli nazariyasi mavjud emas. O'tkazilgan tadqiqotlarning aksariyati turli xil biologik ob'ektlarning hayotiy faoliyatining individual ko'rsatkichlariga magnit maydonning ma'lum parametrlarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Oldin olingan ma'lumotlarga asoslanib, ushbu maqola past chastotali magnit maydonning biosistemalarga ta'sirini o'rganishga harakat qiladi.

Resurslarni tejaydigan texnologiyalarni izlash zamonaviy oziq-ovqat sanoati oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy fizika, kimyo, radioelektronika va biologiya yutuqlarining ishlab chiqarishga tatbiq etilishi energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirishi va shunga mos ravishda ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirishi mumkin.

Biologik tizimlar ham o'simlik, ham hayvonot manbalaridan kelib chiqqan holda doimo elektromagnit maydonning tabiiy va sun'iy manbalari ta'sirida bo'lib, evolyutsiya jarayonida ular elektromagnit maydon bilan o'zaro ta'sir qilish orqali atrof-muhit holati to'g'risida ma'lumotni qabul qilish mexanizmlarini ishlab chiqdilar.

Tabiiy nurlanish manbalariga quyosh, Quyosh tizimi sayyorolari va boshqa kosmik ob'ektlar kiradi. 100-300 gigagerts chastotalardagi Yer yuzi yaqinida bezovtalanmagan Quyoshning nurlanishi $2 \cdot 10^{-6}$ Vt / m² ga teng va -30% gacha o'zgarishi mumkin.

Elektromagnit maydonning (EMM) sun'iy manbalarining kuchi tabiiy manbalar tomonidan yaratilgan fondan sezilarli darajada oshib ketishi mumkin.

Meva va sabzavot xom ashyosini (yangi pomidor, sabzi, baqlajon va bodring) yuvish uchun elektr bilan ishlov berilgan suvning bakteritsid xususiyatlaridan foydalanish shuni ko'rsatdiki, bu usul ushbu o'simlik yuzasida mikrobial ifloslanish darajasini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin (3-4 buyurtma) ruxsat etilgan maksimal miqdorga nisbatan xamirturush va mog'orlarni to'liq yoo'q qilishga erishish va ba'zi hollarda holatlar (sabzi va bodring) yarim bakteritsid ta'siriga erishish. Baliqni qayta ishlash jarayonida elektr bilan ishlov berilgan suvdan foydalanish odatdagi lavabo texnologiga (musluk suvi) nisbatan mikrobiologik ifloslanishni kamaytirishga imkon beradi

Yashil no'xat donalarini elektroaktiv suv bilan davolash xamirturush va mog'orlarni yarim yoo'q qilishga va saqlashning dastlabki 24 soatida mikroorganizmlar tarkibini 21-24 hujayraga kamaytirishga yordam beradi. 48 soatlik saqlashdan so'ng, yashil no'xat donalarining namunalari deyarli steril bo'lib, saqlash muddatini 96 soatgacha uzaytiradi. Shunday qilib, o'simlik materiallarini elektroaktiv suv bilan qayta ishlash orqali ularning saqlash muddatini uzaytirish va hayvonot mahsulotlarining mikrobiologik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Shunday qilib, elektr ishlanma yordamida diffuziya jarayonlarini kuchaytirish oziq-ovqat sanoati uchun yangi istiqbollarni ochadi. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatining istiqbolli yondashish o'simlik va hayvonot manbalaridan olingan xom ashyoni elektroaktiv suv bilan qayta ishlashdir.

ELASTIK SISTEMALARDAGI KO'CHISHLARNI ANIQLASH

Muzafarova Nilufar Gapurovna, 514-20 QMB guruh tolibi Toshev Jamol Jalol o'g'li

Tashqi kuchlar, temperatura o'zgarishi yoki tayanchlarning qo'zg'alishi ta'sirida inshoot elementlarining geometrik o'lchamlari o'zgaradi va bu o'zgarish **deformatsiya** deyiladi. Inshoot deformatsiyalanganda uning deyarli hamma nuqtalari o'zining koordinatalarini o'zgartirib, yangi vaziyatni oladi.

Deformatsiya natijasida inshoot nuqtalarining berilgan holatdan yangi holatga o'tishi **ko'chish** deyiladi. Masalan, rasmda ko'rsatilgan siniq sterjen tashqi kuchlar (yuklar) ta'sirida deformatsiyalanib, yangi holatni egallaydi.


Tashqi kuchlarning bajargan ishi. Agar elastik sistemaga qo'yilgan kuchlar noldan boshlab asta-sekin, bir me'yorda ortib borsa, bunday kuchlar statik qo'yilgan kuchlar deyiladi. Bu tarzda qo'yiladigan kuchlar miqdorining asta-sekin ortishi natijasida elastik inshoot qismlarida hosil bo'ladigan deformatsiyaning o'sish tezligi juda kichik bo'ladi. Shuning uchun inshootning harakatlanayotgan massalarida hosil bo'ladigan inertsiya kuchlarini hisobga olmasa ham bo'ladi. Bu shartga ko'ra, deformatsiya-lanish jarayonida tashqi kuchlar bilan ichki elastik zo'riqishlar orasida doim muvozanat saqlanadi. Rasmda tasvirlangan sistema statik qo'yilgan P_1 kuchning ta'sirida deformatsiyalanadi. Elastik sistemada har qanday nuqtalarning ko'chishi (Guk qonuniga asosan) uni hosil qiluvchi tashqi kuch miqdoriga to'g'ri proporsionaldir:

$$\Delta_{ip} = \alpha P_i$$

bunda Δ_{ip} - kuch P_i dan shu kuch yo'nalishi bo'yicha hosil bo'lgan ko'chish. Bu ko'chish haqiqiy ko'chish deyiladi. α - inshoot elementlari o'lchamlariga va uning materialiga bog'liq bo'lgan koeffitsient.

Agar tashqi P kuch miqdoriga cheksiz kichik dP_i ; ortirma berilsa, kuch qo'yilgan nuqta qo'shimcha $d\Delta_{ip}$ miqdorga ko'chadi va $P_i + dP_i$ kuch o'zi qo'yilgan nuqta bilan shu miqdorga siljib ish bajaradi. Bu kuchning $d\Delta_{ip}$ ko'chishda bajargan elementar ishi:

Bu ifodada dP_i $d\Delta_{ip}$ ikkinchi tartibli cheksiz kichik miqdor bo'lgani uchun uni e'tiborga olmasa ham bo'ladi. U holda:



$$dA = P_i d\Delta_{ip} = \alpha P_i dP_i$$

Bu ifodani integrallab, statik qo'yilgan P_i kuchning to'la bajargan ishi miqdorini aniqlaymiz:

Δ A- tashqi kuchning haqiqiy bajargan ishi deb ataladi. Shunday qilib, tashqi kuchning haqiqiy

bajargan ishi shu kuchni, uning yo'nalishi bo'yicha hosil bo'lgan ko'chish miqdoriga ko'paytmasining yarmiga teng.

Agar sistemaga moment M ga teng bo'lgan juft kuch statik ravishda qo'yilgan bo'lsa, uning bajargan haqiqiy ishi yuqorida bayon etilgan mulohazaga asosan aniqlanadi.

bunda φ - juft kuch qo'yilgan ko'ndalang kesimning burilish burchagi.

Ish tushunchasini umumlashtirish uchun elastik sistemaga qo'yilgan har qanday kuch faktorlarini (P , M va hokazo) umumlashtirilgan kuch deb qaraymiz. Elastik sistemaning deformatsiyalangan holatini to'la aniqlaydigan va o'zaro bog'liq bo'lmagan ko'chishlar umumlashtirilgan ko'chishlar deb ataladi.


UCH SHARNIRLI SISTEMALARNI ANALITIK USULDA HISOBLASH

Muzafarova Nilufar Gapurovna

Uch sharnirli arka, rama, vertikal reaksiya, keruvchi reaksiya, tortqichli arka, tortqichli rama, statika tenglamalari, kesimning momenti, oddiy balka uchun kesimning momenti, kesuvchi kuch, kesimning urinmasi, kesimning normali, oddiy balka kesimining kesuvchi kuchi, urinmaning gorizontalar bilan hosil qilgan burchagi, ratsional o'q, parabola.

O'zaro bitta sharnir vositasida ulangan va fundamentga ikkita qo'zg'almas sharnirli tayanchlar yordamida tiralgan ikki egri brusdan tuzilgan geometrik o'zgarmas sistema uch sharnirli arka deyiladi (1- rasm).

Uch sharnirli arkaga qanday vertikal kuchlar ta'sir etishidan qat'iy nazar, uning tayanchlarida doim gorizontalar yo'nalgan keruvchi reaksiya kuchlari bo'ladi. Bu gorizontalar reaksiyalar havon deyiladi.



Havonli sistemalar arkalar sharnirlarining soniga ko'ra, ikki, Uch sharnirli va sharnirsiz bo'lishi mumkin. Ikkita qo'zg'almas sharnirli va bitta oraliq sharniri bo'lgan Uch sharnirli arka (1- rasm) statik aniq va geometrik o'zgarmasdir. Undagi tayanch reaksiyalarining to'rtta tashkil etuvchisini aniqlash uchun statikaning uchta muvozanat tenglamasiga qo'shimcha bitta tenglama kiritish kerak. Bu tenglama arkaning oraliq sharniri C dan chap yoki o'ng tomonda ta'sir etuvchi hamma kuchlardan shu sharnirga nisbatan olingan momentlar yig'indisining nolga tenglik shartiga asosan tuziladi, ya'ni

yoki

Uch sharnirli arkaning statik aniq va geometrik o'zgarmas ekanligi Yuqorida berilgan formulaga asosan tekshiriladi:

$$W=3D-2Sh-S_t$$

Uch sharnirli arkada $D=2$; $Sh=1$; $S=4$. U holda erkinlik darajasi

$$W = 3 \cdot 2 - 2 \cdot 1 - 4 = 0$$

Bunda oldingi babka qutisining har xil nuqtalarida 10 dan 50° S – gacha haroratda issiqlik o'zgarib boradi. Eng yuqori darajadagi issiqlik shpindel podshipniklari va tezyurar vallar podshipniklari o'rnashgan joylarda bo'lib, korpusli detallar o'rtacha haroratidan 30–40% ga ortiqroq bo'ladi.

Tokarlik dastgohi oldingi babkasining shpindeli o'qining gorizontal yo'nalishidagi siljishi ko'rsatilgan. Dastgoh yurgizilgandan so'ng boshlang'ich davridagi isishi, shpindelni ishchiga qarab siljishiga olib keladi. Sistematik o'zgaruvchan xatolik oldingi babka shpindeli o'qini gorizontal surilishining ikkilangan miqdoriga teng. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, tanavorlarni patronda ishlashdagi gorizontal surilish, markazlarda ishlashdagiga qaraganda ko'proq bo'lib, 17 mkm gacha etadi.

YII.- SHO‘BA
Zamonaviy iqtisodiyotning ijtimoiy – iqtisodiy
muammolari

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH

dots. Zayavitdinova Nafisa Muxamedovna, M 51-23 MNT magistranti Xalilova Gulnoza

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida xizmat ko'rsatish texnologiyalardan foydalanish hamda turli tizimlarni boshqarish masala va muammolariga bag'ishlangan ushbu maqola hozirgi paytda tezkorlik bilan rivojlanayotgan va bir qancha shov-shuvlarga sabab bo'layotgan raqamli iqtisodiyot hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan innovatsion texnologiyalar sohasiga bag'ishlangan hamda uning infratuzilmasini atroflicha tavsiflab beradi.

Ka'lit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, iqtisodiyoti istiqbollari.

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda.

Xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti va turizm sohasi iqtisodiy faoliyatning eng istiqbolli turlaridan biridir. Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, xizmatlar ishlab chiqarish hajmi va ulardan daromadlar ortib bormoqda. Jahon savdo tashkiloti tasnifiga ko'ra xizmatlar ko'rsatish iqtisodiyoti 150 dan ortiq turli xil xizmatlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, biznes xizmatlari, aloqa xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, ta'lim xizmatlari, turizm va unga tegishli xizmatlar, transport xizmatlari, transport va dam olish hamda madaniy va sport tadbirlari singari turlari mavjud. Shundan ko'rinib turibdiki hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy faoliyatning asosiy turi hisoblanadi. Deyarli har bir kishi u yoki bu xizmatdan foydalanadi. Raqamli iqtisodiyot eng avvalo keng polosali internet portlarini yaratishni, optik tolali internet liniyalarini yotqizishni taqozo qiladi. Ushbu muammolarni inobatga olgan holda hamda mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratish hozirda dolzarb hisoblanadi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida keyingi o'n yilliklarida xizmat ko'rsatish sohasi davlatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab bermoqda. Sanoat va qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarning joriy qilinishi hamda ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi xizmatlar sohasini bandlikning asosiy manbaiga aylanib bormoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi aloqa xizmatlari, bank xizmatlari, turizm xizmatlari raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga to'liq yo'naltirilgan, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidagi ko'plab biznes jarayonlar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi paradigmasiga muvofiq allaqachon qayta qurilgan. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha davlat o'z rolini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda, bu erishilgan natijalar va yaqin istiqbolga mo'ljallangan ulkan maqsadlardan dalolat beradi. Xizmatlar sohasini raqamlashtirish mehnat bozorida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat bozorining tuzilishi ham o'zgarib bormoqda, ayrim kasblarning yo'qolib borishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi bashorat qilinmoqda. Raqamli xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida ishlash uchun yangi kognitiv, ijtimoiy xulq-atvor va raqamli ko'nikmalar talab qilinadi, ular raqamli iqtisodiyotda ishlashga qodir kadrlarni tayyorlash jarayonida shakllanishi lozim. Raqamli iqtisodiyot katta hajmdagi axborotni qayta ishlashga asoslanganligi sababli, xodimlarning raqamli kompetensiyalari, xavfsizligi, ishonchligi, katta hajmdagi axborotni uzoq muddat saqlashi alohida ahamiyat kasb yetadi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, sohani raqamlashtirish va uni yanada takomillashtirish yalpi hududiy mahsulotning oshishiga, ishsizlikning qisqarishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga zamin yaratadi.

O'ZBEKISTONDAGI INVESTITSIYA MUHITINING XUSUSIYATLARI

Rasulova Nigora Nematovna, To'rayev To'rabek, 3-bosqich talabasi

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi investitsiya faoliyatining taraqqiyotiga, uning o'zi esa investitsiya muhitiga bevosita bog'liq. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi muhimdir. Negaki mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud bo'lsagina, o'sha davlat iqtisodiyotiga investitsiya qo'yilishi mumkin. Investitsiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi. Jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik borasida qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlab beradi. Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir. Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratishdan iborat.

Mamlakatdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligida namoyon bo'ladi. Xuddi ana shu omil xorijlik investorlarga uzoq muddatli shartnomalar asosida boshqa mamlakatga o'z resurslarini kiritish imkonini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir. O'zbekistondagi investitsiya muhitining asosiy xususiyati uning Markaziy Osiyoda eng barqaror mamlakat ekanligidir. Albatta, bu erda xorijiy investor u yoki bu mamlakatda o'z kapitalining xavfsizligini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratadi. Shundan so'ng u o'z kapitalidan foyda olishning qanchalik samaradorligi haqida o'ylab ko'radi. Demak, investitsiya muhiti investor uchun muhim bir shart: investor u yoki bu mamlakatga kiritayotgan kapitali xatari haqida o'ylab ko'radi. Buning uchun u kapital xatariga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni e'tiborga oladi: mamlakat ichkarisidagi siyosiy barqarorlik; mintaqadagi yaqin qo'shnichilik munosabatlari; hukumatning investitsiya munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan qonun-qoidalarining mukammallik darajasi.

Mamlakat investitsiya muhitini baholashda Xalqaro kredit reytinglaridan ham foydalaniladi. Ular jahondagi o'n bir obro'li agentliklar tomonidan ishlab chiqiladi. Ulardan beshtasi – Amerika, uchtasi – Yaponiya, ikkitasi – Kanada va bittasi Angliya agentliklaridir. Bunda bozorning 90% ikki yirik va mashhur amerika kompaniyalariga tegishlidir – Doing Biznes, Standart and Poor's Investor Service va Moody's Investor Service. Jahon banki tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Doing Business" hisobotida turli mamlakatlarning 6700 dan ortiq ekspertlari tomonidan 189 ta mamlakatning biznesni yuritish bo'yicha (jami 10 indikatori) reytingi e'lon qilib boriladi. Jahon banki tomonidan e'lon qilib boriladigan reytingda biznesni ochish va uni yuritish bo'yicha davlat tomonida yaratilgan ma'muriy taomillar o'rin olgan bo'lib, unda ham mamlakatning iqtisodiy potensialiga tegishli bo'lgan asosiy omillar (bozor hajmi, ishchi kuchining narxi va b.), shuningdek, potensial investor duch kelishi mumkin bo'lgan xavflar inobatga olinmagan.

O'zbekiston 2023 yilgi iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rnini 8 pog'onaga yaxshiladi va 184 davlat orasida 109-o'rinni egalladi. 2022 yilda mamlakat reytingda 117-o'rinda, 2021 yilda 108-o'rinda, 2020 yilda 114-o'rinda edi. O'tgan yilga nisbatan O'zbekistonda iqtisodiy erkinlik darajasi 0,8 punktga oshdi va 56,5 ko'rsatkichga yetdi (maksimal sifatida 100 ball qabul qilingan – bu biznes uchun ideal sharoitlarni bildiradi).

HUDUDLAR MEHNAT BOZORI EHTIYOJI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Jumayeva Dilafruz Xamroyevna, tayanch doktoranti

Ilg'or xorijiy tajribalar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchi va yoshlarning kelgusida bo'lajak kasb-hunarlar yo'naltirilishi, mustaqil va sevimli kasb-hunar bo'yicha ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish har bir hududning imkoniyatlari va salohiyati, qolaversa, mavjud hududiy mehnat bozori prognoz tahlillari natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan dasturlar samardorligi va natijadorligiga bog'liq.

Jahon aholisining o'sish sur'atlari pasayib, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi ortib bormoqda. 2050 yilga kelib, rivojlangan mamlakatlarda 60 yoshdan katta fuqarolar ulushi 33%, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 20%ni tashkil etishi kutilmoqda¹.

YAqin kelajakda jahon mehnat bozorida talab yuqori bo'lishi kutilgan kasb-hunar turlari va istiqbollari bo'yicha tadqiqot natijalariga asoslangan yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar hisobotlarida ko'plab muammolar ko'tarilmoqda. Chunki, ta'lim muassasalarida erishilgan malaka va ko'nikmalar, ta'lim muassasalari va ish beruvchilarning birgalikda potensial ishga da'vogar bitiruvchilarning mehnat bozoridagi imkoniyatlari bo'yicha asosiy signal hisoblanadi.

Bu signal asosida bitiruvchilarning kelgusidagi hayoti davomida olgan haqiqiy ko'nikmalari va bilimlari, xulq-atvori va fazilatlarini baholash mumkin. Mehnat bozori uchun bitiruvchilarni baholashdan ham muhimroq bo'lgan masalalar ko'p bo'lib, ehtiyoj asosida kadrlarni tayyorlash – eng asosiysidir.

Evropa mamlakatlari bo'yicha 2007 yilda olib borilgan tadqiqot natijalari ta'sirchan natijalarni bergan: ta'lim mashg'ulotlar o'tkazilishi 1,0 foizga ortishi unumdorlikning 3,0 foizga oshishiga olib kelgan va ta'lim bilan bog'liq bo'lgan umumiy unumdorlikning o'sishi ulushi taxminan 16,0 foizni tashkil etgan edi².

YUqoridagi tendensiyalar ta'lim, malaka va qayta tayyorlash uchun quyidagi asosiy ta'sirga ega bo'lishi kutilmoqda:

Birinchidan, kelgusida iqtisodiy o'sish bugungi kunga qaraganda ko'proq mehnat unumdorligiga bog'liq bo'lishi, bu ish kuchi ishtiroki ko'rsatkichlari, ayniqsa ayollar va keksa ishchilar o'rtasida o'sish bilan to'ldirilishi, keksa yoshdagi, lekin iqtisodiy faol shaxslar orasida umrbod ta'lim olish muammosi mos ravishda kuchayishi mumkin.

Ikkinchidan, hududiy mehnat bozoriga kirayotgan aholi tarkibida yoshlar kogortasining ortib borayotgani ta'lim va o'qitish salohiyatini hamda barqaror ish o'rinlarini yaratish ko'rsatkichlarini shubha ostiga qo'yishda davom etishi, joylarda malakasi past bo'lgan yoshlarni ish bilan bandligiga ko'maklashishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, mehnat migrantlarining milliy va xalqaro darajadagi oqimi o'sib borishda davom etishi, sifatli ta'limdan adolatli foydalanishda, xususan, ayrim retsipient mamlakatlardagi malakaviy bo'shliqlar donor mamlakatlarda tomonidan to'ldirishidagi talablar va mutanosibliklar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Inson resurslarini rivojlantirish va o'qitishning ushbu maqsadlari yillar davomida sezilarli darajada o'zgaragan bo'lsa-da, kontekst - liberal, bozorga asoslangan iqtisodlarga o'tish, malaka oshirishga moyillik, texnologik o'zgarishlar, ishni tashkil etishning yangi usullari, ishsizlik, qashshoqlik va ijtimoiy chetlanishning ortib borayotgani - yaqinda tubdan o'zgardi³.

¹ United Nations, World Population Prospects: The 2008 revision (New York, Department of Economic and Social Affairs, 2008).

² CEDEFOP (European Centre for the Development of Vocational Training). 2007. Building a European VET area, Agora conference (Thessaloniki).

³ ILO. International Labour Conference. 88th Session, 30 May - 15 June 2000. Report V. Training for employment: Social inclusion, productivity and youth employment. Human resources training and development: Vocational guidance and vocational training. Fifth item on the agenda. International Labour Office Geneva, 2000. <https://www.ilo.org/public/english/standards/relm/ilc/ilc88/rep-v.htm#Training%20and%20employability>

MARKETING FAOLIYATIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH

Yuldasheva S.N., Samadov A.-710-22 MAR guruhi talabasi

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirish ko'p omillar qatori logistikaga ham bog'liqlik, logistikani qo'llashning asosiy sabablari bo'lib, korxonalarining xususiyatlari ya'ni ishlab chiqarish va mahsulot sotish xususiyatlari, korxonalarda sexlar va bo'limlar soni iste'mol qilinadigan resurslar va mahsulotlar nomenklaturasi, ular hajmi, ishlab chiqarish uzluksizligi, ishlab chiqarishning davriyligi, ishlab chiqarish jarayonlarining bir necha bosqichlilik, tugallanmagan ishlab chiqarish hajning ko'pligi, xom ashyo ta'minoti va mahsulot sotishning keng tarmoqli bozorlarning mavjudligi hisoblanadi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida quyidagilarni ta'kidladilar: "Navbatdagi masala — 2023 yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo'shimcha 4 milliard dollarga oshirish asosiy maqsadimiz bo'ladi. Bu yil boshlangan «Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti» dasturi o'z samarasini bermoqda. Bir yilning o'zida 2 mingga yaqin tadbirkorlar ilk bor tashqi bozorlarga chiqdi. Kelgusi yilda ham eksport qiluvchilarga transport va boshqa xarajatlarini kompensatsiya qilish davom ettiriladi. Evropa bozorlariga tekstil, elektr texnikasi, charm-poyabzal va boshqa tayyor mahsulotlar eksportini kamida 2 barobar oshiramiz. Mahsulotlar eksporti bo'yicha hozirgi 9 ta bosqichdan iborat bojxona rasmiylashtiruv 3 barobar qisqaradi".

Ma'lumki, mamlakatimiz eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishi, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishi zarur. SHuningdek, transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir.

Logistika logistike grek so'zidan olingan bo'lib, hisoblash san'ati ma'nosini bildiradi. Amaliyotda esa logistika tizim sifatida harbiy ishlarni bajarishda harbiy qo'shinlarni moddiy resurslarni ta'inlashni tashkil qilishda yuzaga keldi. Iqtisodiyotda esa logistika ilmiy yo'nalish sifatida zamonaviy korxonalarda samarali qo'llanilishini taqozo etadi. Aytib o'tilgan xususiyatlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimi ichida va tashqarida oddiy oqimlarini samarali boshqarish choralarini talab qiladi. Shundan kelib chiqib, logistikaga quyidagicha ta'rif beriladi: Logistika – bu moddiy va u bilan bog'liq axborot, moliyaviy oqimlarni boshqarishdir. Logistik bilimlarni o'rganishning asosini moddiy oqimlar tashkil qiladi. Axborot oqimlar esa moddiy oqimlarning ajralmas qismi hisoblanib, ularni miqdor va sifat jihatdan tavsiflaydi.

Logistika xoh ishlab chiqarish tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish bosqichi va xoh amalga oshirish bosqichi bo'lsin, marketing tadqiqotlari jarayoniga, moddiy resurslarning harakatlanishi, mahsulotlarning iste'molchilar o'rtasiga taqsimlanishi, shaxsan ishlab chiqarish jarayoni hamda ma'muriy-boshqaruv faoliyatiga ta'sir qiladi. Bir tomondan, logistika marketing tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari va amaliy xulqini boshqaradi. Boshqa tomondan, bu tadqiqotlarning xarakteri va o'tkazish usullari logistik boshqaruvning tuzilishi va vazifalarini belgilaydi. Hududiy marketing tadqiqotlari iqtisodiy faoliyatning xarajatli ko'rsatkichiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ishlab chiqarish faoliyatining navli va hajmli ixtisoslashuvi ular tomonidan belgilaniladi. Marketing tadqiqotlari sotishlarning hajmi va taqsimlashning tuzilmasini tanlashni belgilaydi. . Logistik tizim marketing tadqiqotlarini butun iqtisodiy faoliyatni ushbu tadqiqotlar natijalarini amalga oshirish yo'nalishida tashkil qilish bilan kengaytiradi va to'ldiradi, ushbu faoliyatni tashkil qilish moliyaviy oqimlarni tartibga solish va tegishli boshqaruv ko'rsatmalarini berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Logistika tamoyillariga ko'ra atrof bozor muhiti va iqtisodiy faoliyatning borishi haqidagi joriy axborotlarning marketing tadqiqotlari asosida qabul qilinadigan barcha boshqaruv qarorlari moddiy oqimlarga ta'sir qilishda aks ettiriladi. Pirovardida logistik boshqaruv shunday tadbirda ta'sirni amalga oshirishi va ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishi kerakki, kamroq xarajatlarda salohiyatli iste'molchilarni yaxshiroq qanoatlantirsin va ularning doirasini kengaytirsin.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH

Po‘lotov Shoxrux Shavkatovich, o‘qituvchi-stajyor

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi islohotlar pirovardida farovon kelajak uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor shijoatli yoshlarni ta’lim va tarbiya berish bilan birga mehnat va zamonaviy kasb-hunar ko‘nikmalarini hududiy ehtiyojlar asosida shakllantirishga asoslangan kadrlar tayyorlash jarayoni ko‘lamini yanada kengaytirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunda nafaqat milliy ehtiyojlar, balki xalqaro talablarga ham alohida e’tibor qaratilishida jahon iqtisodiyoti ham manfaatdor hisoblanadi.

Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bunga sabab nafaqat ayrim sohalardagi kadrlar taqchilligi, balki mehnat bozori jamiyatdagi o‘zgarishlar ortidan o‘zgarib borayotganligi bilan ham izohlash mumkin. Xususan, ba’zi iqtisodiyot sohaslarida ko‘plab kasblar yo‘qolib, ayrim kasblar mazmunan va mohiyatan o‘zgarishlarga duch kelmoqda, shuningdek, yangidan-yangi innovatsion kasblar paydo bo‘lmoqda.

Mamlakatda har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad, ushbu hududda aholi daromadlarini va turmush darajasini oshirish hamda mavjud kambag‘allikni qisqartirish hisoblanadi. Bunday maqsadlarga avvalambor hududlar aholisining samarali, munosib va daromadli ish bilan bandligini ta’minlash orqali erishiladi.

Mehnat bozorida bitiruvchi yoshlar inson resurslari tarkibidagi umumiy aholining eng katta ulushini tashkil qilganligi sababli, malaka va ko‘nikmalar nomuvofiqligi bo‘yicha muammolarga juda tez va oson duch kelishadi. Bu esa ularning ilk bor ishga joylashuvida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ko‘nikmalarni tan olish jarayonidan bir nechta mumkin bo‘lgan natijalar bo‘lishi mumkin: ko‘nikmalar to‘liq, qisman tan olinadi yoki umuman tan olinmaydi. Buning uchun albatta xalqaro va milliy standartlar hamda xalqaro va milliy bozordagi talab muhim o‘rin tutadi.

Mehnat taklifi sub’ektlari mehnat bozori ehtiyojlariga malakalar nomuvofiqligi tasnifi asosida ikki guruhga bo‘linadi: vertikal nomuvofiqlik va gorizontal nomuvofiqlik.

Mehnat bozori ehtiyojlariga malakalar nomuvofiqligining vertikallik tamoyili lavozim yo‘riqnomasida belgilangan vazifalarni bajarish uchun malaka va ko‘nikmalar darajasini bildiradi. Ayrim tajribali xodimlar malakasi yuqori bo‘lganligi uchun boshqa joydan ish topishda qiynalishsa, ayrim tajribasiz yoshlarga bo‘sh ish o‘rinlari talablari oldida malakasiz ekanliklari pand beradi. Har ikki holatda ham malaka darajasi vertikal yo‘nalish bo‘yicha tavsiflangan.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar shakllantirildi:

1. Xalqaro tajribalar asosida mehnat bozori ehtiyojlari asosida kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirishga xizmat qiladigan ko‘nikmalarni aniqlash va baholash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2. Ta’lim muassasalarida malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilg‘or tajriba va zamonaviy texnologiyalar asosida ularning malakasini oshirib borish lozim.

3. Bilim, malaka va ko‘nikmalarning samarali almashinuvi hamda uzatilishini ta’minlaydigan milliy axborot va maslahat xizmatlari tarmog‘ini rivojlantirish kerak.

4. Mehnat bozorida qishloq xo‘jaligi va sohalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan va kadrlar tayyorlayotgan barcha turdagi davlat ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligini ta’minlash zarur.

5. Hududlar mehnat bozori ehtiyoji asosida mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq.

6. Qishloq xo‘jaligi sohasidagi talab va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida Davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlarining tizimli ravishda takomillashtirilish ustida ish olib borish belgilab qo‘yildi.

7. Ish joylarining ishlab chiqarish-texnologik o‘lchamlari asosida mehnat bozorida mehnat resurslari kasb-malaka tuzilmasi taklifining ularga talabini muvofiqlashtirish metodologik yondashuvlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOSHQARUV QARORLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Nasirova G.B., Raxmatov J.A.

Har qanday davlatning ijtimoiy hayotidagi bugungi o'zgarishlar, ya'ni taraqqiyotning jadal sur'atlarda o'sishi, zamonaviy texnika va texnologiyalarning jamiyatga kirib kelishi, dunyodagi yangiliklarning tez tarqalishi davlat va jamiyat boshqaruvidagi muammolarning murakkablashib borishiga olib kelmoqda. Bu holatda insonning intellektual imkoniyati katta hajmdagi axborotlar bilan ishlab, qaror qabul qilishda qarama-qarshiliklarga duch kelishi va noto'g'ri qaror chiqarishi mumkin. Buning oqibatida boshqaruvning uzilish xavfi ortadi. Boshqaruvning asosi qaror hisoblanadi. Bugungi kunda qaror qabul qiluvchi shaxsning xatosi nafaqat tadbirkorning, biror-bir tashkilot yoki davlatning talofati, balki global ravishda insoniyatga talofat keltirishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy rahbar boshqaruv jarayonidagi vaziyatlarni tahlil qilishni, qarorlar qabul qilish hamda qarorlar ijrosini ta'minlash va nazorat qilish texnologiyalari bilishi zarur. Ma'lumki, har qanday faoliyat turi boshqaruv asosiga quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishda ko'zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun mazkur faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish chora-tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi.

Boshqaruv faoliyatining samaradorligi qabul qilinayotgan qarorlarning optimalligiga bog'liq, korxon va tashkilotdagi muammolarning aniq yechimi boshqaruvchiga yuklangan, ishlab chiqarish, texnik, ijtimoiy, iqtisodiy, marketing va huquqiy vazifalar qarorlarni to'g'ri qabul qilish va o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq. Yechilayotgan muammolar boshqaruvchi tomonidan hisobga olinadi, bu uning boshqaruv uslubi hamda butun boshqaruv jarayonida aks etadi. Bu yerda asosiy maqsad – qarorlarni optimal qabul qilish imkoniyatlarini beruvchi asoslarni o'rganish. Shuni ta'kidlash kerakki, qabul qilingan qaror natijalari ayrim sohalar uchun salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun qarorlar tashkilotni tizim sifatida ko'rib, hamma qismlari uchun javob beradigan holda qabul qilishi kerak. Rahbar oxirgi natijani ko'zlab, kamchiligi bo'lsa ham shunday muqobil qaror qabul qilish kerakki, natijada maqsadga ko'proq erishilsin. Kompromisslar konsepsiyasi ana shundan iborat.

Qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash - bajarish tsiklini yakunlovchi rahbarning o'ziga xos faoliyatidir. Bu o'rinda rahbar o'z ishini emas, boshqa odamlar mehnatini tashkil etayotganligini hisobga olishi kerak. Tashkiliy boshqarish qarorlari buyruq tarzida yoki farmoyish bilan rasmiylashtirilgandan so'ng qonun tusiga kiradi. Rahbarning bosh vazifasi bunday qarorni sozlash va nazorat qilishni ta'minlaydigan bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda boshqaruv qarorlarini tayyorlash va optimallashtirish jarayonida optimal qaror qabul qilish uchun, avvalo rahbar o'z tamoyillariga ega bo'lishi va qisqa vaqtda qarorning muqobilini tanlay olishi kerak. Ilmiylik tamoyilini o'zida jo qila olgan rahbarning ongi ostida yetarlicha ma'lumotlar bo'lishi kerak. Shuningdek Optimal qabul qilingan qaror korxonaning iqtisodiy holatini barqarorlashtiradi, chunki qarorlarni optimallashtirish bu kam xarajat evaziga ko'p foyda olishni nazarda tutadi. Zero, iqtisodiyotning eng asosiy qonuni bo'lgan cheklangan resurslar sharoitida cheksiz samarali qondirish avvalo rahbarning oqilona cheksiz ehtiyojlarimizni samarali qondirish avvalo rahbarning optimal qabul qilgan qarori orqali belgilanadi. Oqilona qaror korxonaning minglab ishchilari taqdirini belgilab, ular orqali bilvosita ularning oilalarida turmush farovonligini oshiradi. Optimallashtirish qarorlar korxonada birdamlik ruhini kuchaytirib, ishchilar orasida korxonaga ishonchni yuksaltiradi.

KLASTERLAR VA ULARNING MINTAQALAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Aslanov A.X.

Hozirgi vaqtda ilm-fanni talab qiladigan texnologiyalardan oqilona foydalanish aksariyat hududlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishning bir usuli bo'lib, ushbu hududlarda joylashgan tashkilotlar va korxonalarining ilmiy salohiyati ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirishga yordam beradi.

Davlat klasterlarning shakllanishi va faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, ayniqsa, innovatsiyalarni rivojlantirish va ulardan foydalanishga qaratilgan. "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi" innovatsiyalarni rivojlantirish va ilmiy - ishlab chiqarish klasterlarini qo'llab quvvatlash muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu hujjat ta'lim sifatining pasayishi, tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanmaganligi va innovatsion faoliyat darajasiga qaratilgan.

O'zbekiston kompaniyalari chet el kompaniyalari bilan bir qatorda bozorda raqobatlasha olmaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun ilmiy - ishlab chiqarish klasterlarini moliyalashtirish juda muhimdir. Klasterlarning rivojlanishini rag'batlantirish byudjet mablag'lari hisobidan kichik biznesga yordam berishning hududviy dasturlarini moliyalashtirish, shuningdek, innovatsiyalarni faol ravishda moliyalashtiradigan hududlarni qo'llab-quvvatlash orqali osonlashadi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, muvaffaqiyatli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlaridan biri bu - to'g'ri va aniq ishlaydigan klasterlar bo'lib hisoblanadi. Klaster yo'q – samarali iqtisodiyot ham yo'q.

Hududlarda klasterlarning rivojlanishini baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish usullari va usullarining mohiyatini tushunishga imkon beradi, shuningdek mintaqalarning klaster siyosatini tizimli tahlil qilish ko'nikmalari bilan tanishtiradi.

Umuman olganda, aytish mumkinki, klasterlar iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish olib borilayotgan klaster siyosatini to'g'ri baholash, mavjud muammolarni aniqlash, tajribalarni o'rganish, klasterning samarali faoliyatini tashkil etishda muhimdir. Iqtisodiy klasterning uzoq muddatli muvaffaqiyati klasterning siyosatini ishlab chiquvchilar hamda tashkilotchilarining klasterda tajribalar olib borish uchun shart-sharoit yaratishiga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligiga asoslangan klasterlarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar, klasterni rivojlantirish siyosati zarur bo'lib, bunda hukumat, mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiy institutlar rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha jahon mamlakatlari tajribasiga qisqacha nazar solsak, ko'rishimiz mumkinki, klasterlashtirish siyosati mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va tipi, imkoniyatlari va klasterlashtirishdan ko'zlangan maqsadlardan kelib chiqib turlicha xususiyatlarga egadir. Xususan, Yevropa Ittifoqida klaster siyosatining maqsadimintaqa bo'ylab klasterlarni rivojlantirish hamda ularning innovatsion sig'imkorligi, raqobatbardoshligini oshirish hisobalanadi va klasterlashtirish rivojlanayotgan sanoatlar va mintaqa doirasidagi hamkorlik, klasterlarni xalqaro doiraga olib chiqish, klasterlarni mukammallashtirish jarayonlarini qamrab oladi.

Umuman olib aytganda, milliy iqtisodiyotni klasterlashtirish har bir mamlakatning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi va mamlakatning klaster siyosati mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy elementlarini o'zida mujassam etib, uning asosida shakllanadi. Iqtisodiy klasterlarni shakllantirish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha mamlakatlar milliy modelining turlichaligi yana bir bor iqtisodiy klasterlarni shakllantirishning yagona universal modeli, shakli yo'qligidan dalolat beradi. Fikrimizcha, bu milliy iqtisodiyotda klasterlashtirishni faol qo'llayotgan O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun e'tiborga olinishi muhim bo'lgan dolzarb masala sanaladi.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH

p.h.d. doktoranti Xalliyeva Nargiza Roziqovna
M51-23MNT magistranti Bibutova Sarvinoz Narzullayevna

Kalit soʻzlar: Moliya, raqamli iqtisodiyot, korxonalar, investitsiya, raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, strategiya, biznes modellar.

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayoni tashqi va ichki muhitning oʻzgaruvchan parametrlariga bogʻliq boʻlib, bu, oʻz navbatida, ehtiyojni aniqlaydi: 1) ishlab chiqarishning ilgʻor texnologiyalaridan foydalanish; 2) har xil turdagi resurslar xarajatlarini kamaytirishga yordam beradigan samarali texnologik jarayonlarning joriy etilishi; 3) mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash. Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatdoshligini taʼminlash uchun yangi samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Shu bilan birga, qabul qilinadigan qarorlarning sifati zamonaviy ishlab chiqarish jarayonini boshqarish tizimining samarali ishlash tamoyillari, tashkilotni boshqarish texnologiyasini rivojlantirish va ishlab chiqarishni boshqarish asoslarini bilishga bogʻliq. Maqsadga yoʻnaltirilgan boshqarish prinsipi korxonalar faoliyatini aniq muammolarni hal qilishga yoʻnaltirish, maqsadga erishish uchun uni amalga oshirishni oʻz ichiga oladi. Funksional ixtisoslashuv universalligi bilan birgalikda prinsip shundan iboratki, universal yondashuvni qoʻllashdan tashqari boshqarish jarayonida har bir nazorat obyektining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Boshqaruv jarayonining ketma-ketligi prinsipi ishlab chiqarish jarayoni tarkib topgan asosiy elementlar yoki bosqichlar bir-birini maʼlum tartibda bajarishi kerakligi bilan bogʻliq. Bundan tashqari boshqaruv harakatlarining ketma-ketligi tabiatan davriy boʻlishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayonidagi barcha ishtirokchilarning oʻz maqsadlariga erishishda umumiy qiziqish prinsipi taniqli xodimlarni maʼnaviy va moddiy ragʻbatlantirish, shuningdek, ijrochilarni ular ustida ishlashning dastlabki bosqichlarida qarorlarni tayyorlash jarayoniga maksimal darajada jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Amaliyotda ishlab chiqarishni boshqarish tamoyillari ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish prinsiplari bilan chambarchas bogʻliqdir. Ishlab chiqarishni boshqarish korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatining yuqori natijalarini, vaqtni tejashni, yuqori sifat va ishlab chiqarish samaradorligini taʼminlashga qaratilgan. Buning uchun umuman ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish muayyan prinsiplarga asoslanishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoni oʻzaro bogʻliq mehnat va tabiiy jarayonlarning yigʻindisidir, buning natijasida xomashyo tayyor mahsulotga aylanadi. Differentsiya va kombinatsiya prinsipi ishlab chiqarish jarayonining eng yaxshi iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini taʼminlaydi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonining yuqori darajadagi differentsiatsiyasi bilan ajralib turadigan ichki ishlab chiqarishni tashkil etishni soddalashtirish, ishchilarning malakasini oshirish va mehnat unumdorligini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, haddan tashqari farqlash ishchilarning charchashini kuchaytiradi, koʻplab operatsiyalar asbob-uskuna va ishlab chiqarish vositalariga boʻlgan ehtiyojni oshiradi, qismlarni koʻchirish uchun keraksiz xarajatlarga olib keladi va hokazo. Konsentratsiya prinsipi bir xil uskunalardan foydalanish zaruratini aniqlaydigan texnologik usullarning umumiylikini kuzatish mumkin boʻlgan individual ishlab chiqarishdan iborat; har qanday turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni koʻpaytirishdan iborat. Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayonini vaqt va makonda tashkil etishda yuqorida keltirilgan prinsiplarni hisobga olish kerak, ulardan toʻgʻri foydalanish korxonalar samaradorligini va sarflanadigan mablagʻlarning oqilona darajasini oshiradi.

РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ ВУЗА

Заявитдинова Нафиса Мухаммадовна, Равшанова Дилдора Шохимардон кизи

Расширение экспорта образовательных услуг в последние десятилетия вошло в число приоритетов государственной политики всех стран мира.

Интерес любого государства к расширению экспорта образовательных услуг можно объяснить несколькими причинами:

1. Подготовка специалистов для других стран является содействием реализации геополитических и экономических интересов страны.

2. Стремление привлечь иностранных студентов подталкивает вузы к реформированию системы подготовки специалистов с учетом требований мирового рынка труда; повышению качества обучения; разработке новых учебных программ и курсов с «включением международных компонентов», обеспечивающих подготовленность выпускников к работе в условиях глобальной экономики и, в конечном итоге, превращению национальных университетов в международные научно-образовательные комплексы.

3. Наличие иностранных студентов существенно повышает репутацию вуза. Кроме того, страна-экспортер образования может получать пользу от глобальных связей с выпускниками своих вузов.

4. Иностранные студенты являются приоритетным источником пополнения численности населения и улучшения демографической ситуации, а также трудового потенциала, т.к. заканчивая вуз, они уже полностью интегрированы в общество – владеют языком, знакомы с культурой и законами.

В механизме государственного регулирования образования всех стран мира особое место занимают вопросы, связанные с государственной поддержкой экспорта образовательных услуг.

Образование является важнейшим конкурентным преимуществом Узбекистана. В современных условиях экспорт образовательных услуг - достаточно значимое направление в экономике страны. Качественное образование определяет конкурентоспособность страны на мировом образовательном рынке.

Как можно развивать и стимулировать экспорт образовательных услуг в Узбекистане? Прежде всего надо ввести изменения в Закон «Об образовании», это касается форм, видов и сроков обучения в ВУЗах. Следует внедрить систему дистанционного образования, определить круг прав и обязанностей участников образовательного процесса, в особенности, предприятий и представителей частного предпринимательства, которые являются основными потребителями этих услуг. Пока, к сожалению, только редкие предприятия оплачивают целевую подготовку кадров, выделяют стипендии и используют другие стимулирующие рычаги для успешной подготовки кадров.

Действующая система подготовки специалистов в силу излишней загруженности количеством часов и предметов не может готовить качественных специалистов. В этой связи следует пересмотреть образовательные стандарты. Важно учитывать, что количество предметов не должно превышать норму и необходимо акцентировать большее внимание на специализированные предметы, которые являются определяющими в качественной подготовке кадров.

Следует ввести систему стимулирования для привлечения ведущих иностранных специалистов и студентов для обучения в ВУЗах республики. Для этого следует сотрудничать с фондами при министерстве инновационного развития, высшего и средне-специального образования, а также выделять средства из бюджета самих вузов, предприятий и партнеров, а также участников образовательного процесса. Прием иностранных абитуриентов необходимо возложить на сами вузы. Только таким образом можно отвечать мировым стандартам по образовательным услугам.

BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISHDA MURAKKAB QARORLARNI QABUL QILISHNING 8 USULIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna, Xodjiyev Azamat Baxodirovich

Qaror qabul qilish tizimlashgan jarayon hisoblanadi. Rahbar boshqaruv faoliyati davomida murakkab qarorlar qabul qilishiga to‘g‘ri keladi, bunda rahbar murakkab qarorlarni tezroq qabul qilishning 8 usulidan foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

To‘g‘ri qaror qabul qilish uchun uni o‘ylashga juda ko‘p vaqt sarf etish shart emas, deb hisoblaydi taym-menejment bo‘yicha mutaxassis Elizabet Greys Sanders. U tavsiya etadigan usullar quyidagilardan iborat. Dastlab o‘zingizni muvaffaqiyatli qaror qabul qilishga tayyorlashingiz kerak. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat.

O‘ylash uchun vaqt ajrating. Tabiiyki, vaqtingiz yo‘q. Agar vaqt yetishmasligi bosim o‘tkazayotgan bo‘lsa, kundalik vazifalarni rejalashtirishni butunlay ko‘rib chiqish kerak. Qaror qabul qilish – odatdagidan ko‘proq diqqat talab etadigan vazifa. Kichik yechimlarni o‘ylash uchun sizga 30 daqiqa yoki bir soat kifoya. Jiddiyoqlari uchun esa – ikki yoki uch hafta davomida bir necha soat talab etiladi. Qaror qabul qilish uchun qancha vaqt ajratmang, uni kalendarda belgilash va tanlangan jadvalga amal qilish muhim.

Qanday qaror qabul qilish kerakligini aniqlang. Qaror qabul qilishdan avval amalga oshirayotgan tanlovingiz xususiyatiga aniqlik kiritish kerak. Qaroringiz ta’sir qiladigan asosiy omillarni aniqlab, u yoki bu tanlov sizni haqiqatan ham xursand qilishi yoki aksi ekanini tezda anglaysiz. Balki yangi ish joyi haqidagi taklif jozibalidir, biroq ofisga yetib olish uchun har kuni ikki soat ketishiga chiday olmaysiz.

Barcha variantlarni o‘ylab ko‘ring. Qaror qabul qilishdan avval ehtimoldagi barcha variantlarni o‘ylab ko‘ring. Balki darhol ko‘zga tashlanmagan kelishuvlar yoki muqobil jihatlarni toparsiz. Shuningdek, qaror qabul qilish kerak yoki zarur emasligi to‘g‘risida ham o‘ylab ko‘rish lozim. Ba’zida hech nimaga aralashmay, oqim bo‘ylab suzgan ma’qul.

Bular qaror qabul qilishning asosiy tamoyillari edi. Endi tanlovni tezroq amalga oshirishga yordam beradigan usullarga o‘tamiz. Ulardan har biri turli vaziyatlar uchun mos keladi.

O‘z tamoyillaringizga ishonning. Agar hayotda rioya etishni istaydigan tamoyillaringiz mavjud bo‘lsa, murakkab qarorlarni qabul qilishingiz oson bo‘ladi. Xizmat safari, yetib olish uzoq bo‘lgan ofisga ishga joylashish yoki yirik xarid haqida qaror qabul qilish kerak bo‘lsa, u yoki bu qaror tamoyillaringizga zid bo‘lishini darhol tushunasiz.

Yechim variantlarini kelishib oling. Ba’zi odamlarga barcha yechimlarini eshitish yordam beradi. Agar siz ular toifasidan bo‘lsangiz, muhokamadan so‘ng tezroq qaror qabul qila olasiz. Bu haqida muhokama qilayotgan odamlarga bildirish shart emas. Bor-yo‘g‘i sizni diqqat bilan tinglaydigan odam kerak. Suhbatingizning so‘ngida suhbatdosh hech nima demasa ham o‘zingiz qaror qabul qilasiz.

Fikrni tashqaridan eshitib ko‘ring. Ba’zida esa kimningdir maslahati kerak bo‘ladi. Agar hech qachon bajarmagan ishni amalga oshirmoqchi bo‘lsangiz, xuddi shunday vaziyatda bo‘lgan odamdan maslahat so‘rang. Biroq ehtiyot bo‘ling – maslahatga ko‘r-ko‘rona amal qilish ham yaramaydi. **O‘z qaroringizni sinab ko‘ring.** Ba’zi holatlarda qaror variantini qabul qilishdan oldin sinab ko‘rish mumkin. Masalan, agar ish uchun sizga boshqa shaharga ko‘chishni taklif etishayotgan bo‘lishsa, dastlab u yerga borib ko‘rish va vaziyatni baholash yoki bo‘lajak hamkasblar bilan suhbatlashish lozim. Bunday daqiqalarda yangi tajribani boshdan o‘tkazasiz va tanangiz o‘zini notanish muhitda qay darajada qulay his etayotganini bildiradi.

O‘zingizga quloq soling. Ba’zida qaror qabul qilish jarayoni qiyin kechadi, miya bir variantni oqilona hisoblasa, yurak boshqasini to‘g‘ri sanaydi. Bunda holda bildirilayotgan fikrlar haqida o‘ylab ko‘rish zarur. Biz eng oqilona mavjudot emasmiz. Ba’zida shaxsiy umidlarga quloq solish o‘rinli, chunki ayrim vaqtda ular biz qaysi qarorni istayotganimizni aytadi.

Hayot murakkab tanlovlarga to‘la, biroq ular vaqtingizning ko‘p qismini olishi shart emas. Keyinchalik afsuslanmaslik uchun qarorlarni tezda, biroq o‘ylab qabul qilishga o‘rganing.

КИЧИК КОРХОНАЛАРДА СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Тошев Ф. З., Махмуджонов Азамат 712-21 ИҚТ гуруҳ талабаси

Мамлакатимизда иқтисодий янада ривожлантириш ва эркинлаштириш шароитида, тадбиркорларлик субъектларига қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, солиқ сиёсатини янада эркинлаштириш, солиқ маъмурчилиги шаффофлигини таъминлаш ва хўжалик юритувчи субъектлари зиммасидаги солиқ юкни камайтириш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

2022 - 2026 йилларда мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг еттига устувор йўналиши бўйича тасдиқланган тараққиёт стратегиясининг “**миллий иқтисодий жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш**” деб номланган учинчи йўналишида: солиқ юкни камайтириш ва солиққа тортиш тизимини соддалаштириш сиёсатини давом эттириш, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва тегишли рағбатлантирувчи чораларни кенгайтириш каби чора-тадбирлар белгиланган.¹

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 февралдаги “Солиқ қонунчилигини тубдан такомиллаштириш бўйича ташкилий чора - тадбирлар тўғрисида”ги Ф-5214-сонли фармойишига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг янги таҳрири лойиҳасини тайёрлаш, солиқ қонунчилиги ва солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш юзасидан тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқишда, “солиқ имтиёзи” ва “солиқ преференцияси” тушунчаларини аниқ чегаралаш вазифаси белгиланган.

Ўрганишлар кўрсатмоқдаки, “солиқ имтиёзи” ва “солиқ преференцияси” тушунчалари хусусида иқтисодчи олимлар томонидан турли хил фикрлар ва ёндашувлар мавжуд бўлиб, ягона бир таърифга келинмаган. Шунингдек, “Солиқ преференцияси” тушунчаси меъёрий ҳуқуқий ҳужжатларда, луғатларда шу жумладан Солиқ кодексида ҳам белгиланмаган. Шу муносабат билан, Солиқ кодексининг 30-моддасига қўйидагича ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш мақсадга мувофиқдир:

Солиқ имтиёзи - Солиқ кодекси ва бошқа қонун ҳужжатларига мувофиқ, солиқ тўловчиларга солиқ мажбуриятини қисқартириш, солиқ ставкаси ва солиқ базасини камайтириш, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни тўламаслик ёхуд уларни камроқ миқдорда тўлаш имконияти солиқ имтиёзи деб эътироф этиш мумкин.¹

Солиқ преференцияси - (praeferentis - афзалликлар) лотинча сўздан олинган бўлиб, Солиқ кодекси ва бошқа қонун ҳужжатларига мувофиқ, иқтисодий тартибга солиш ва ривожлантириш мақсадида, солиқ тўловчилар учун солиқ мажбуриятини бажаришда (солиқларни тўлашни кечиктириш, бўлиб-бўлиб тўлаш ва х.к.) қулай шарт-шароитлар яратиш бўйича тақдим қилинадиган афзаллик ва устуворликлар.

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, бугунги кунда солиқ имтиёзлари самарадорлигини аниқлаш бўйича ягона услубиёт ишлаб чиқилмаган ва меъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар билан тасдиқланмаган. Солиқ имтиёзларидан фойдаланиш самарадорлиги корхонада энг аввало имтиёзли ҳисобот йилида олдинги ҳисобот йилига нисбатан қанча миқдорда тушумни оширилганлиги, қўшимча солиқ тўланганлиги ва фойда миқдори ошгани муҳим ҳисобланади.

Бизнинг фикримизча, кичик корхоналарда солиқ имтиёздан фойдаланиш самарадорлиги коэффицентини аниқлашда, имтиёзли даврда бюджетга тўланган солиқ суммасини ҳақиқий ўсиш суммасини корхонада ҳисобланган солиқлар суммасига нисбатини олиш лозим. Шунингдек, солиқ имтиёзи самарадорлиги коэффицентини корхона ихтиёрида қолган солиқ имтиёзи суммасини олинган фойдага нисбати ва иқтисодий самарадорлиги коэффицентини солиқ имтиёзини тушумга нисбати орқали аниқлаш мақсадга мувофиқ.

Юқорида билдирилган таклифлар ва тавсиялар тадбиркорлик фаолиятини солиққа тортиш механизмининг такомиллаштириш, солиқ имтиёзлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш ва тадбиркорликка қулай ишбилармонлик муҳитини шакллантиришга хизмат қилади.

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA QASHSHOQLIKNI KAMAYTIRISHNING ZAMONAVIY MODELI

Xalliyeva Nargiza Rozikovna,(PHD)

